O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi
5111700 – “Boshlang‘ich ta’lim, sport - tarbiyaviy ish” ta’lim yo‘nalishi
4-bosqich 2-guruh talabasi

Akbarova Baxtigulning

Bitiruv malakaviy ishi

Mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarni go‘zal xulq ruhida tarbiyalashda ertaklardagi maqol va o‘gitlarning o‘rni va ahamiyati

Ilmiy rahbar: **Jo‘raxonova S.**

Andijon - 2017

Mundarija

Kirish.....3

I bob. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishning nazariy asoslari

1.1. Go‘zal xulq va odob – inson kamolotining poydevori.....7

1.2. Mutafakkirlarning go‘zal xulq tarbiyasi haqida fikrlari.....12

II bob. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini go‘zal xulq ruhida tarbilashda ertaklardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari

2.1. Ertaklarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.....17

2.2. Ertak ustida ishlash metodikasi.....27

III bob. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishda ertaklardagi maqol va o‘gitlarni tahlil qilishning ahamiyati

3.1. Maqol va o‘gitlar-xalq donishmandligi namunalari.....32

3.2. Ertaklardagi maqol va o‘gitlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini go‘zal xulq ruhida tarbiyalash.....39

Xulosa.....48

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati……..…...…..50

Kirish

Biz sog’lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak,
sog’lom kishi deganda faqat jismoniy sog’lomlikni emas,
balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g’oyalar asosida
kamol topgan insonni tushunamiz[1]...
I. A. Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish yo‘lida olib borilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar mustaqil fikrlash layoqatiga ega, aqliy, ma’naviy-axlokiy, ruhiy va jismoniy jihatdan yetuk, barkamol insonni tarbiyalash zarurligini taqozo etmoqda. Zero, barkamol avlodning ijtimoiy faolligi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi ta’minlangan huquqiy jamiyatni barpo etish imkoniyatini beradi. Shu sababdan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» mazmunida o‘z aksini topgan g‘oyalar insonni intelektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish imkoniyatini beruvchi eng maqbul yo‘l ekanligini ifodalaydi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohatlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borishi natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo`g`ini hisoblanadigan xalq ta’limida ham tub islohatlar ro`y bermoqda. U yangilanmoqda, yoshlar ta’lim-tarbiyasining takomilashtirish, ularning mazmuni, uzluksizligini ta’minlab beradigan yangi xujjatlar pedagogika texnalogiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bormoqda. O`tmish davriga xos iqtisodiy murakkabliklarga qaramay, ta’limning moddiy negizi musahkamlanib bormoqda.

Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va xukumatining ta’limni rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilim, iqtidor va ko`nikmalar berish, ularni ona-Vatanga, milliy isiqlol g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash

[1] I.A. Karimov “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch” Toshkent “Ma`naviyat” 2008 y.

borasida ko`rsatilgan doimiy g`amxo`rligi tufayli ta’lim-tarbiya ishlarining bugungi qiyofasi tubdan o`zgardi.

Mamlakatimiz isiqlolining eng dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimiz yaratgan og`zaki adabiyotlarni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini shakllantirish, zaminini musahkamlash, uni davr talablari bilan uyg`unlashtirish asosida jahon andozalari va ko`nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga katta ahamiyat berildi.

Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasida ish shakli keskin o`zgaradi. Respublikada bolalar muassasalari “oila bog`chasi”, “bog`cha-maktab” majmualari barpo etildi.

Ta’imdagi isloxatlar uzluksiz ta’limning o`rta maxsus va oliy ta’lim bo`g`inlarida ham olib borildi, ko`pgina pedogogika institutlari unversitetlarga, pedagogika bilan yurtlari kollejlarga aylantirildi.

Xalq ommasining turmush faoliyat jarayonida to`plangan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlar yig`indisi xalq pedagogikasining mazmuni ifodalaydi. Ya’ni xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va xalq donishmandlarining xamon yoshlarini kutilgan maqsadga muvofiq kishilar qilib etishtiradigan tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo`lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirsh bobida qo`llanib kelingan usul vosita, ko`nikma va malakalar birligini ifodalovchi tajribalar asosida to`plangan bilim va ma’lumotlar yig`indisidir.

Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalari bolalarga kuchli ma’naviy ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Maqollar, ertaklar tajribada sinalgan, minglab yillar davomida jamiyat a’zolarini eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi.

Maktab va xalq ta’limining asosiy ishi va vazifasi savodli, bilimli, yuksak ma’naviyatli fuqarolarni tarbiyalab yetishtirishdir. Inson kamolotining biror sohasi yo‘qki, unga maqollar, ertaklar ta’sir etmagan bo‘lsin. Ayrim manbalar yoshlarni tarbiyalashni qonun-qoidalari, prinsiplari, metodlarini aks ettirishi bilan ajralib

turadi. Shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish va tarbiya jarayoniga tatbiq etish mavzuning dolzarbligini belgilab bermoqda.

Ishning maqsadi va vazifalari - Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy sifatlarini shakllantirishda, ularni go‘zal xulq egasi, komil inson sifatida tarbiyalashda ertaklar va ularda keltirilgan maqol va o‘gitlarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish ishimizning asosiy maqsadidir. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda quyidagi vazifalarni beogilab oldik:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda odob-axloq qoidalari va ular haqida buyuk mutafakkirlar fikrlarini o‘rganish.
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini go‘zal xulq ruhida tarbilashda ertaklardan foydalanishning nazariy va metodik asoslarini o‘rganish.
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishda ertaklardagi maqol va o‘gitlarni tahlil qilishning ahamiyatini ishlab chiqish.

Mavzuning o’rganilish darajasi – biz tomonimizdan tadqiq etilayotgan mavzu ko`gina fol’klorshunos, pedagog, psixolog, sotsiolog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini, izlanishlarni debochasi hisoblanadi.

O‘zbek xalq ertak va maqollari fol’klorshunos olimlar M.Afzalov, B. Karimov, M.Alaviya, X.Zaripov, G`.Jahongirov, B.Sarimsoqov va boshqa tomonidan keng talqin qilingan, monografiyalar, nomzodlik va doktorlik dissertasiyalar tadqiq etilgan.

Pedagog olimlarimizdan M.Inomova, O.Musurmonova, A.Ortiqov, M.Xaydarov, D.Abdurahimova, A.Teshaboev, X.Sanoqulov singari olimlarimiz tomonidan, pedagogik nuqtai nazar tomonidan yoritilgan.

Lekin yuqorida zikr etilgan folklorshunos va pedagog olimlarimizning tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodiining ayrim qirralari yoritilganligini ko`ramiz.

Ishning metodologik asoslari: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni,

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va mavzuga oid ilmiy – pedagogik, metodik, tarixiy, falsafiy manbalar.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida biz o‘ndan ortiq ertak to‘plamlarini o‘qib, o‘rganib chiqdik. Maqollar, ertaklar mazmuniga qarab, yoshlarni tarbiyalashni turli yo‘nalishlarini, aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va boshqa xususiyatlarni tarkib toptirishga qaratilganligini ko‘rdik. Demak, xalq og‘zaki ijodi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda eng qulay vositadir. Zero, xalq og‘zaki ijodi bolalar hayotida alohida o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarga samarali tarbiyaviy ta’sir qilib, ma’naviy va axloqiy shakllanishlarida katta yordam ko‘rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I bob. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishning nazariy asoslari

1.1. Go‘zal xulq va odob – inson kamolotining poydevori

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, mushohada qilish aqlni peshlaydi, aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma’naviy manbaga aylanadi. Inson tarbiyasi uzoq muddatli, uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon. U tarbiyachi (ota-ona, ustoz-murabbiy, pedagog)lardan doimo xushyorlik, sergaklik, mahorat, bilim talab qiladi. Shu tarzda insonning asta-sekin aqliy salohiyati takomillashib, u komillikka intilib boradi. Bularni amalga oshirish uchun esa tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyatli munosabat, sharafli mehnat, qunt, iroda va shu kabi axloqiy xislatlar talab etiladi. Insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi (mahalla, ko‘cha, bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurti), ijtimoiy muhit va tarbiyalanuvchiga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi.

Tarbiya inson umrining oxirigacha davom etadigan jarayon bo‘lib (inson umrining oxirigacha o‘rganadi, degan naql asosida tarbiyalanib), doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib, komillikka intilib yashaydi. Quyida uzluksiz ravishda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning har bir bosqichini alohida ko‘rib chiqamiz.

1. Oilada axloqiy tarbiya. Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta’kidlab o‘tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma’nan sog‘lom ota-onadan sog‘lom farzand dunyoga keladi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov sog‘lom avlod to‘g‘risida fikr yuritib: «Sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog‘lom, imon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar

avlodni tushunaman»[2], deb ta’kidlaganlar. Ushbu fikrni har bir ota-ona, pedagog, tarbiyachilar tushunib yetmog‘i va o‘ziga shior qilib olmog‘i lozim.

Farzand tug‘ilgan kunidan boshlab dastlab oila muhitida tarbiyalanadi. Bu davrda bolani to‘g‘ri ovqatlantirish, to‘g‘ri parvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo‘lgan davrda bola o‘ziga yaqin kishilarni ko‘rganda xursand bo‘ladi, rangdor o‘yinchoqlarni xush ko‘radi. Bu davrda bolani alla, ma’noli erkalashlar, chiroyli o‘yinchoqlar orqali tarbiyalab borish lozim. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar esa turli o‘yinchoqlarni o‘ynay boshlaydilar, asta-sekin nutqi rivojlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o‘yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog‘laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni shakllanadi. Bu vaqtdan boshlab bolalarga do‘stlik, inoqlik, o‘zaro hurmat, bir-biriga yordam tushunchalarini sodda qilib tushuntirib borish ahamiyatlidir. Bolalar bu davrda eshitgan narsasini takrorlashga urinadilar, shu sababli bu davrda kattalarning ma’nili so‘zlashuvi, yurish-turishi, odobi, o‘zaro ahilligi, mehribonligi bola ruhiyatiga ta’sir etadi. Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo‘lishi, bolaning sog‘lom o‘sishiga, odob-axloqli bo‘lishiga olib keladi. Bolani lozim bo‘lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyot bo‘lishini uqtirish, axloqsiz so‘z va gaplardan uzoqroqda bo‘lishini ta’minlash, o‘rtoqlari bilan urishmaslik yo‘llarini o‘rgatish – ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy ta’sir hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiya. Maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasasidagi davr bola tarbiyasidagi eng muhim davr hisoblanadi. Chunki, bu davrda paydo bo‘lgan taassurotlar izi inson xotirasida umrbod saqlanib qoladi. Bu davr bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o‘sishi, dunyoni bilishga intilishi, atrof-muhitga o‘z munosabatini bildirish istagi kuchayib borayotgan davrdir. Ota-ona va tarbiyachilar esa bolalarni to‘g‘ri o‘sishlari, aqliy va axloqiy, ma’naviy, estetik jihatdan tarbiyalashga jiddiy e’tibor berishlari lozim. Buning uchun asosan o‘yinlar va ertaklar asosida axloqiy tarbiya berish mumkin,

[2] G‘aybullayev N. va b. Pedagogika (ma’ruza matni). Toshkent: 2000. 26-bet.

chunki bu yoshdagi bolalar asosan o‘yin faoliyatida bo‘ladi, o‘yinlarning rang-barang bo‘lishi va jamiyatimiz maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etish juda muhim.

3. Boshlang‘ich ta’limda axloqiy tarbiya. Boshlang‘ich ta’limda bola hayotida yangi, qiziqarli va muhim davr boshlanadi. Chunki, bola maktabga kelgach yangi muhit, yangi tartib-qoida, yangi talablarga duch keladi. Bu davrda bolalar hali o‘yin faoliyatini to‘liq tark etmaganligini inobatga olib, o‘tiladigan dars mashg‘ulotlarini qiziqarli qilib olib borish lozim. Bu davrga kelib bolaga tarbiyaviy ta’sir yo‘llari bir muncha aniq va tizimli ravishda bo‘lib qoladi. Chunki endi xususan odobnoma darslari o‘tila boshlaydi, bundan tashqari boshqa fanlarda ham muntazam ravishda axloqiy tarbiya berib boriladi. Endi bolalar asta-sekin nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini, bunyodkorlik nima-yu, vayronkorlik nima, ijobiy va salbiy xislatlar qanday ekanligini, qanday fazilatlarga ega bo‘lish lozim-u, qanday qusurlardan xoli bo‘lish lozimligini anglay boshlaydilar. Bu davrda turli to‘garaklarni uyushtirish ham o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Bunda o‘qituvchining pedagogik mahorati, bilimi, umuman pedagogik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O‘rta umumiy ta’limda axloqiy tarbiya. O‘rta maktab davriga kelib o‘quvchi o‘rganadigan fanlar ham asta-sekinlik bilan murakkablasha boradi, shunga ko‘ra o‘quvchining fikrlashi va dunyoqarashi ham kengayib boradi. Bu davrda o‘quvchilarga o‘zaro odob-axloqqa doir maqollar va hadis namunalaridan ko‘proq aytish orqali musobaqa uyushtirish hamda ushbu maqol va hidislarga o‘zlari ham amal qilishlarini tarbiyalash mumkin. Endi o‘quvchilar burch, vijdon, nomus, adolat, ezgulik kabi axloqiy tushunchalarning ma’nisini tushunib yetadilar. Ularga ota-ona va Vatan oldidagi burchlarini tushuntirib borish, turli musobaqalar va ommaviy mehnat tadbirlari orqali jamoa nomusini saqlash, bunga esa adolat yo‘li bilan vijdonli baho berish orqali erishishni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

5. O‘MKHTda axloqiy tarbiya. O‘MKHTda o‘quvchilar qiziqishi va intilishi hisobiga akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlarida ta’lim ola boshlaydilar. Bu davr o‘quvchilar tarbiyasida juda murakkab davr hisoblanadi.

Chunki, bu yoshdagi o‘quvchilarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan keskin o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bu davr o‘smirlik davri bo‘lib, o‘tish davri deb ham ataladi. Ko‘pchilik o‘quvchilar bu davrda o‘zlariga ideal tanlaydilar, o‘qituvchi esa bunda o‘quvchilarga munosib ideal tanlashda yordam berishi va shu idealning ijobiy xislatlarini egallashga intilishini ko‘chaytirishi lozim. Bu davrda o‘quvchilarda halollik, rostgo‘ylik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik, bosiqlik, xushfe’llilik, kamsuqumlik, shirinsuxanlik kabi axloqiy fazilatlarni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

6. Oliy o‘quv yurtlarida axloqiy tarbiya. Oliy ta’limda talabalar endi biror mutaxassislikni tanlagan holda, o‘zining mustaqil fikri, dunyoqarashi, intellektual qiziqishiga ega bo‘ladilar. Talabalar o‘zlarining hozirgi faoliyatiga kelajakdagi hayotida o‘z o‘rnini topish, belgilash nuqtai nazaridan qaraydilar. Shu sababli bu davrda bo‘lajak mutaxassislarni axloqiy jihatdan tarbiyalash muhim. Chunki bu davrda talaba o‘zining madaniy-ma’naviy saviyasini oshirishga intiladi, o‘z ustida qunt bilan ishlaydi, radio, televidenie, Internet va barcha informatsion vositalardan unumli foydalanadi, turli asarlar bilan tanishadi. Bu esa yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun yordam beradi. Bu davrda talabalarda insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, tinchliksevarlik, shirinsuxanlik, xushfe’llilik, kamtarlik, bosiqlik kabi fazilatlarni rivojlantirish shart.

7. Oliy ta’limdan keyingi faoliyatda axloqiy tarbiya. Talaba uzoq muddatli va tizimiy ta’lim natijasida mutaxassis sifatida shakllandi. Endi u nazariy jihatdan egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llab yosh avlodga ta’lim-tarbiya beradi, uning o‘zi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy ruhda tarbiyalay boshlaydi. Uzluksiz ravishda uzoq muddatli olib borilgan ta’lim-tarbiya samarasi mana endi ko‘zga tashlanadi.

Bola shaxsining kamol topishida doimiy ravishda muhitning ta’siri sezilib turadi. Muhit – bu insonga ta’sir etuvchi tashqi voqea-hodisalar yig‘indisi hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi uzluksiz tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqea-hodisalar o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’sirini o‘tkazib turadi. Buning uchun esa tarbiyalanuvchidagi o‘zgarishlarga ota-

onalar va tarbiyachi, o‘qituvchilar doimiy ravishda e’tiborli bo‘lib, tashqi muhitning salbiy ta’sirini oldini olib, ijobiy ta’sirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim.

Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog‘lom, intellektual salohiyatli, bir so‘z bilan aytganda sog‘lom avlodni tarbiyalash davr talabi ekan. Bu ishni amalga oshirish esa barchamizning Vatan oldidagi muqaddas burchimizdir. Shunday ekan, yoshlarimiz tarbiyasiga doimo e’tiborli bo‘laylik.

1.2. Mutafakkirlarning go‘zal xulq tarbiyasi haqida fikrlari

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan ulkan, bebaho ma’naviy va ma’daniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagicha fikr bildirganlar: «Xalqimiz tayanchi - ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosning o‘zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim»[3]. Zero, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarda xalqimizga xos bo‘lgan insonning axloqiy-ruhiy kamolot masalasi yetakchi o‘rin tutadi. Insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o‘gitlari alohida o‘rin egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlari umriboqiy ma’naviy boylik hisoblanadi. Chunki ularning pand-nasihati hayotdan, hayot tajribasidan kelib chiqqan va ezgu orzu-niyatni ifodalaydi hamda umuminsoniy mohiyat kasb etadi. Ulug‘ donishmandlarning pand-nasihatlari, o‘gitlari zamirida insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari yotadi. Diyorimizda yaratilgan ta’limiy-axloqiy pand-nasihat tarzidagi asarlar bugungi kunda ham yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim qo‘llanma, ta’lim-tarbiyaning muhim omili bo‘lib kelmoqda.

Buyuk insonlarning farzandlariga atab yozilgan nasihatnomalari ichida **Kaykovusning «Qobusnoma»** asarini alohida qayd etib o‘tish joiz.

XI asrning 82–83-yillarida G‘arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o‘sha davr an’anasiga ko‘ra uni bobosi podshoh Shamsul-maoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi. «Qobusnoma» pand-nasihat tarzida yozilgan bo‘lib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni ma’naviy hayotga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo‘llanma bo‘lib kelmoqda. Asarda yoshlar tarbiyasida – juvonmardlik

[3] Karimov I.A. Buyuk maqsad yo’lidan og’ishmaylik. T., «O’zbekiton», 1993 y, 8- b.

talablaridan eng muhimi – axloq tarbiyasi, deb ko‘rsatiladi. U yoshlarda o‘zgalarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish, adolatlilik, samimiylik, saxiylik, insonparvarlik, saxovatlilik, qanoatlilik, muruvvatlilik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadini amalga oshirishga harakat qiladi. Masalan, asarda quyidagi purma’no fikrlarni ko‘rishimiz mumkin «Ey farzand, hargiz yaxshilik qilmoqni tark etmag‘il, hamisha yaxshilikni xaloyiqqa ko‘rguzg‘il va aslo uning aksini ko‘rguzmag‘il, boshqa til bila so‘zlamag‘il»[4]. Asarda bu kabi yoshlarda axloqiy fazilatlarni yuksaltirishga qaratilgan fikrlarni ko‘plab uchratish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim o‘rin tutadi.

Ushbu nasihatnoma yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tadbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o‘z qimmatini yo‘qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Shayx Najmiddin Kubro (1145-1221) ham o‘z shogirdlari uchun o‘git-nasihatlardan iborat «Fi al-adab» («Odob qoidalari») risolasini yozib qoldirgan. Mutafakkirning asosiy g‘oyasi komil insonni tarbiyalash, odamni halokatga boshlovchi nafs, xusumat, gumon, ta’na, nifoq, riyo, fosiqlik kabi yomon fe’l-atvordan xalos bo‘lib, faqat yaxshi ishlar qilishga, ruhiy poklikka chorlashdan iboratdir. Shu o‘rinda asardan quyidagi namunalarni keltirib o‘tamiz «Umr va dunyodan ko‘ra tez, shoshilib yo‘q bo‘lib ketadiganroq, o‘lim va oxiratdan ko‘ra yaqinroq, orzudan ko‘ra uzoqroq, xotirjamlikdan ko‘ra go‘zalroq narsa yo‘q ekan. Eng yaxshi do‘st ilm ekan… aqlni esa yaxshiliklarga chorlashda ko‘rdim. O‘z-o‘zini tarbiyalay olgan kishi eng kuchli shaxs ekan. Ko‘rdimki, eng noyob ne’mat rostgo‘ylik va qahramonlik, eng og‘ir og‘riq esa yomon va muvofiq do‘stlar ekan».

Sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi davlat boshqaruvi haqida bo‘lsa, asarning ikkinchi qismida

[4] Kaykovus. Qobusnoma (Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov). T.: «O‘qituvchi», 2006, 42-bet.

Sohibqiron o‘z farzandlari va nabiralariga o‘git va nasihatlarini aytib o‘tgan. Asarda Amir Temur o‘g‘illari va nabiralariga davlatni boshqarishda qanday yo‘l tutish, qanday qonun-qoidalarga amal qilish, qur’on va shariat talablariga rioya etish, doimo adolat bilan ish yuritish, rahbarlik faoliyatida halol, pok, insofli-diyonatli bo‘lish, farzand tarbiyasi, oila tutish va hattoki kelin tanlash borasidagi o‘git-nasihatlarini yozib qoldirgan. Masalan, «O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirdim»[5].

Buyuk insonlarning umumiy tarzdagi pand-nasihatlari, ma’naviy-axloqiy yo‘riqnoma sifatidagi asarlarga juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Avvalo, payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vassallamning Hadisi shariflari birinchi navbatdagi pand-nasihatlardir. Chunki, hadislar axloq qonun-qoidalari va talablarini ifodalovchi nasihatnomadir. Bundan tashqari IX-XI asrlardagi Abu Nasr Farobiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylardan tortib to bugungi kundagi olimlarimiz va yurtboshimiz I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasi haqidagi g‘oyalarini keltirishimiz mumkin.

Ta’lim-tarbiya masalalari, go‘zal fazilatlarni egallash moziydagi buyuk siymolar va donishmandlarni diqqat markazida bo‘lib kelgan. Markaziy Osiyoning ulug‘ faylasufi **Abu Nasr Forobiy** ham bundan istisno emas. Mutafakkir inson o‘zgalar yordamisiz kamolga, baxt-saodatga erishishi qiyinligini ta’kidlaydi. “Har bir insonning tug‘ma tabiatida va unga lozim bo‘lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko‘pchilik bilan munosabatda bo‘lish, ... ular bilan birlashishga muhtoj yoki majbur” - deydi u. Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, boshqalar bilan muloqotda yaxshi yoki salbiy xislatlarni egallaydi.

[5] Temur tuzuklari. (Forschadan A. Sog‘uniy va H. Karamatov tarjimasi). – T.: «G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti», 1996.- 68- 72 betlar.

Inson xulq-odob, kasb-hunar, odat, iroda, axloqiy qoidalar, bilimni yashash jarayonida, o‘qish, o‘rganish, takrorlash, chidam bilan mehnat qilish orqali egallaydi. Mutafakkirning fikricha, insoniy fazilatlarni ikki yo‘l bilan, ya’ni ta’lim va tarbiya orqali qo‘lga kiritish mumkin. Olim bu ikki usulning bir-biridan farqini aniq ko‘rsatib beradi. “Ta’lim, - deydi u, - faqat so‘z, o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir. Agar ular, shu kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar”[6].

Umuman olganda, Forobiy nafaqat o‘zining “Baxt-saodatga erishuv haqida” asarida, balki “Ideal shahar aholisining fikrlari”, “Aql ma’nolari haqida”, “Ixso al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” va boshqa risolalarida insoniy fazilatlar, aqliy va xulqiy tarbiya haqida fikr yuritadi.

Forobiyning umuminsoniy qadriyatlar, axloq va xulq-odob qoidalari ilm-fan va kasb- hunarni egallash va boshqa insoniy xislatlar to‘g‘risida ilgari surgan fikrlari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda, ular barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Rayxon Beruniy Xorazm poytaxtida xijriy 362 yilda, milodiy 973 yilda tugilgan. Beruniy "Xindiston" asarida shularni yozadi:

«... Yaxshi xulq, din talab etadigan xulqlar bo‘lib, shohobchalari ko‘p bo‘lsa ham, ularning fikricha, asl va asosi ko‘p ma’nolarni o‘z ichiga olgan bir muncha ishlardan iboratdir.

Ular : o‘ldirmaslik, yolg‘on gapirmaslik, o‘g‘irlik qilmaslik, zino qilmaslik, mol yig‘maslik, keyin doimo pok va tozza bo‘lish, hamisha ro‘za tutib, o‘zini qiynash, tangrini poklab va ulug‘lab, uning ibodatiga yopishish.»

Beruniy insonni har tomonlama kamol topishishini eng avvalo mehnat bilan, o‘qib ma’lumot va hunar egasi bo‘lishi bilan bog‘lik deb bilgan. Uning

[6] Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. –T.: Fan, 1975.

fikricha, inson aqli va ma’rifatligi bilan barkamol va rasodir. **Mahmud Koshg‘ariyning** «Devonu lug‘otit turk» asarida ta’lim-tarbiya, xulq-odob, ilm-fan to‘g‘risida hikmatli va ibratomuz fikrlar mavjud. **Yusuf Xos Hojib**ning «Qutadg‘u bilig» asarida ta’lim-tarbiya va ma’naviy kamolatning yo‘l-yo‘riqlari, axloq-odob xususidagi fikrlar keltirilgan. **Ahmad Yugnakiy**ning «Hibat ul-haqoyiq» asarida ilmning afzalligi, til odobi, sahovat, xulq-odob, zakovat va boshqa ijtimoiy masalalar to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Mazkur asarlarning barchasi yosh avlodga axloqiy tarbiya berish jarayonida muhim didaktik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda matnlar tanlash jarayonida ushbu pand-nasihat tarzida yaratilgan asrlardan unumli foydalana olsak, o‘tiladigan fanlarda har bir mavzuga mos, axloqiy tarbiyalanganlik darajasini oshiradigan mantlarni olib, o‘z o‘rnida qo‘llay olsak, ko‘zlagan maqsadimizga erishish imkoni yaratiladi. Chunki, ushbu donishmandlarning pand-nasihatlarida mehnatga, el-yurtga muhabbat, poklik, halollik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sahiylik, mehr-muruvvat, xushmuomalalik kabi ezgu insoniy sifat va xislatlar targ‘ib qilinadi hamda dilozorlik xudbinlik, johillik, yalqovlik, tanballik, egrilik, baxillik, shafqatsizlik, badxulqlik kabi salbiy xislatlar qoralanadi, beayov tanqid qilinadi.

II bob. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini go‘zal xulq ruhida tarbilashda ertaklardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari

2. 1. Ertaklarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari

Ertak umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janrlardan bo’lib, M.Koshg’ariy o’z «Devonu lug’otit turk» asarida turkiy xalqlarda uning «etuk» atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga ko’ra, etuk «biror voqeani og’zaki hikoya qilish»ni anglatadi.[7] Biroq jonli so’zlashuvda O’zbekistonning turli joylarida, chunonchi, Namangan viloyatining Janubiy qismida «ertangi» deb yuritiladigan bu hodisa – ertangi bo’lib o’tgan, qadimgi zamonlardan qilinajak hikoya ma`nosini anglatsa, Samarqand, Farg’ona va Surxondaryoda bu hodisa – matal, Xorazmda –varsoqi, Buxoroda – ushuk, Toshkentda - cho’pchak, yana boshqa bir qator maskanlarda – hikoya, hikoyat, og’zaki hikoya, o’trik yoki o’tirik, afsona deb yuritilsa-da, folklorshunoslikda ertak ilmiy istilohi qabul qilingan va muqim muomaladadir.

Ertaklarning paydo bo’lishi. Ertak xalq og’zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, kattayu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo’lgan janridir. Ular juda uzoq o’tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo’lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlari haqidagi orzu-o’ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini kechirgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan. Davrlar o’tishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan. So’zga sig’inish, ilohiy kuchlarga sig’inish, animistik, totemistik, fetishistik e`tiqodlar, tush ta`sirida fantastik vositalarga to’lisha borsa, hayvonlarni ovlash, xonakilashtirish, ular inonchlariga ishonish, hayvon mahsulotlaridangina emas, balki kuchidan ham foydalanish jarayonlarida hayvonlar haqidagi ertaklar paydo bo’la boshladi. Asta-sekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini

[7] Mahmud Koshg’ariy. Devonu lug`otit turk. 1-tom, T.: «Fan» , 1960, 98-b.

omuxtalashtira borish, u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar yuzaga kela boshladi.

Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada hayotiy uydirmalar asosidagi maishiy ertaklar paydo bo'la boshladi. Shu zaylda ertaklar ijtimoiy – estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topdi.

Ertaklarning janr xususiyatlari. Ertaklar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo'lib, o'ziga xos g'oyaviy – mavzuviy yo'nalishga, axloqiy – ta`limiy va ijtimoiy – estetik vazifalarga ega. Ertaklar ham og'zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko'rinishda yaratiladi. Og'izdan – og'izga, urug'dan-urug'ga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrosiga xos belgilarini, obrazlarini, motivlari va badiiy vositalarini deyarli saqlab qoladi. Shu bilan birga versiya va variantlilik hosil qilishi mumkin.

Har bir xalqning ertagi o'sha xalq tarixini, ma`naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e'tiqodini boshqa qardosh elu elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Deyarli barcha ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi yagona maqsadga- mehnat ahlining buyuk va yorqin kelajak uchun olib borgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. Shuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murodga yetishdan iborat umidbaxsh g'oya bilan yakun topadi.

Ertaklar tasnifi. Xalq ertaklari ifodalayotgan g'oyaviy mazmuniga, obrazlar talqiniga, badiiy tili va uslubiga, voqelikni aks ettirish tarziga, syujet va kompozitsiyasi qurilishiga, bunda xayoliy va hayotiy uydirmaning tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra tasnif qilinadi. O'zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o'rganmoq ma`qul topildi. Bular quyidagilar:

Sehrli –fantastik ertaklar.

Hayvonlar haqidagi ertaklar.

Maishiy-hayotiy ertaklar.

Sehrli-fantastik ertaklar. Bu tipdagi ertaklar xayoliy uydirma asosiga qurilganligi, ibtidoiy insonning animistik tasavvur-tushunchalarini ifodalab kelishi jihatidan boshqa turdagi ertaklardan keskin farq qiladi. Ularda, M.Gorkiy ta`rificha: «Hammadan ham «uydirma» hodisalarni oldindan ko'ra biluvchi tafakkurimizning ajoyib xususiyati ibratlidir. Ertakchilar xayoliy «uchar gilamlar»ni aeroplanlar ixtiro qilinmasdan necha asrlar ilgari, afsonaviy tez harakatlarni parovoz, gaz va elektromotorlar bunyodga kelmasdan birmuncha vaqt ilgari bilgan edi… insonning ajoyib xususiyatlaridan biri-«faraz»ni ham fantaziya, «uydirma» vujudga keltirib tarbiyalagan."[8] Chindan-da, yaratilgan oynayi jahonnamo –televizor, uchar gilam- samolyot, o'zi yurar etik yoki kovush – mashina, poezd, ur to'qmoq –zamonaviy avtomat qurollar qachonlardir xalq fantastikasida yaratilgan sehrlanish hodisasining mo''jizaviy oqibati hisoblanadi.

Sehrli-fantastik ertaklarda voqelik favqulodda shiddatli sirli tusda, g'ayrioddiy muhitda, sehr-jodu ishtirokida, g'ayritabiiy personajlar hamkorligida yuz berishi bilan xarakterlanadi. Ularda voqea yuz berayotgan makon va zamon tilsimli, sirli bo'ladi. Jonsiz narsalar jonlantiriladi va ular insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadi.

Sehrli –fantastik ertaklarda evrilish fantastik motivi yetakchidir. Shunga ko'ra qahramon sehr – jodu yordamida turli shakllarga kiradi, o'z qiyofasini o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi. Ularda qahramonlar sehrli-tilsimli predmetlar yordamida o'z istak-tilaklarini ro'yobga chiqaradiki, buning zamirida ibtidoiy insonlarning magik tasavvur –tushunchalari yotishidan darak beradi.

Sehrli-fantastik ertaklarda dev, pari, jodugar, alvasti, jin singari g'ayritabiiy personajlar ishtirok etadi. Ular sehr-jodu kuchiga ega, kerakli narsa-hodisalarni, jonivorlarni istagan paytda o'z sehru jodusi bilan bordan yo'q, yo'qdan bor qila biladi, ularni o'zi xohlagan qiyofaga sola oladi. Bunday xususiyat Xizr, Simurg', yalmog'iz kampir va ajdar (uch boshli, yetti boshli) kabi mifologik-personajlarga ham xos. Biroq Xizr, Simurg' personajlari hamisha homiy sifatida ijobiy

[8] Gorkiy M. Adabiyot haqida. 1962, 319-b.

mohiyatga ega. Yalmog'iz kampir esa goh homiy sifatida ijobiy fazilatlar sohibi, goh o'ta shafqatsiz, har qanday razillikdan qaytmaydigan, hatto odamxo'rlikdan huzurlanadigan salbiy personaj sifatida harakat qiladi. Bu personajlarning barchasi ibtidoiy ajdodlarimizning qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalarini o'zlarida ibtidoiy insonlarning nafaqat animistik, balki totemistik qarashlarini ifodalagan. Sehrli – fantastik ertaklarda, albatta, bosh qahramon yovuz kuchlar bilan kurashib ular ustidan g'alaba qozonadi. Ularda bosh qahramon ertakning boshlanishidan to oxirigacha xayoliy uydirma qobig'ida berilganligi tufayli uning tug'ilishi ham, unib-o'sishi ham g'ayritabiiy holda tasvirlanadi.

Sehrli – fantastik ertaklarning syujeti sarguzasht voqealar tizimidan iborat. Voqealar rivojida tilsim[9] muhim o'rin tutadi. Uch, to'rt, besh, olti, to'qqiz, qirq singari sehrli raqamlar (uch yo'l, uch aka-uka, uch opa-singil, uch kecha –kunduz, yetti pahlavon, yetti pari, yetti kecha-kunduz, yetti bosh; qirq kecha- kunduz, qirq bahodir kabi an`anaviy ifodalar), ur to'qmoq, ochildasturxon, oynayi jahonnamo, hayot suvi, sehrli olma, uchar gilam, bulbuligo'yo, bir sermaganda qirq gaz cho'ziladigan qilich, sirli sandiq singari jodulangan sehrli predmetlar ertak syujetidagi motivlar yo'nalishini belgilovchi muhim badiiy unsurlar vazifasini o'taydi.

Sehrli-fantastik ertaklarning o'ziga xosligi ulardagi personajlarning alohida aniq nom bilan atalmasligida ham ko'rinadi. Zero, bu personajlarning aksariyati biror belgisiga ko'ra laqab bilan ataladi, laqab ularga ko'chma nom vazifasini o'taydi: qilich botir, Kenja botir, No'xat polvon kabi. Bunda ibtidoiy jamiyatda asl nomni yovuz kuchlardan sir tutib himoya qilish e`tiqodi izlari saqlab qolingan. Ulardagi har bir personaj ertakning ham badiiy-estetik, ham kompozision qurilmasida muhim o'rin tutadi. Chunonchi, Xizr obrazi ertak yakunida asosiy ziddiyatni bartaraf etishda xizmat qilsa, yalmog'iz kampir, ajdar, dev, pari kabi personajlar asarda ziddiyatlarning kelib chiqishida, voqealarning shiddatkor rivojida, ertak g'oyasi ochilishida - yaxshilikning yomonlik, to'g'rilikning egrilik,

[9] "Tilsim" arabcha so`z bo`lib jodu quvvatiga egaligi bois turli-tuman qiziq va ajoyib shakllarda mavhum xayollarning namoyon bo`lishi yoki yerga ko`milgan xazina ustida ko`rinadigan qo`rqinchli jimjimalar. "Jodu" forscha so`z bo`lib, sehr, arvohni anglatadi. Narsa va hodisalardagi g`ayritabiiy favqulodda kuch yoki xususiyatlar.

yorug’likning zulmat, donolikning jaholat ustidan g’alabasining ta`minlanishida muhim rol o’ynaydi. Shuningdek, humo, simurg’ kabi timsollar ham voqealar rivoji sababchisi sifatida namoyon bo’ladi.

Xullas, sehrli –fantastik ertaklar o’ziga xos badiiy-kompozision tizimga-xayoliy uydirmaga, syujet motivlariga, maxsus personajlarga, badiiy til vositalari va uslubiy jilolarga egaligi bilan ajralib turadi va xalq ertaklarining eng qadimiy namunalari sifatida nisbatan ko’pchilikni tashkil etadi.

Hayvonlar hakidagi ertaklar. Bu tipga mansub ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo’lgan. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo’lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko’ra ularning syujetida inson obrazi keyingi o’rinda turadi, ko’p hollarda voqelikka inson aralashmaydi. Binobarin, ular yaratilish maqsadi, mazmun-mohiyati jihatidan bir necha ichki turga ega:

1. Sof hayvonlar haqidagi ertaklar. Bularda insonlarga naf keltiruvchi hayvonlar madhi yetakchidir

3. Majoziy (allegorik) ertaklar. Bularda insonlarga xos qusur va kamchiliklardan hayvonlar fe`li va xatti – harakati timsolida tanqid qilish, fosh etish yoki kulish yetakchidir.

Sof hayvonlar haqidagi ertaklar hayvonlar timsolida yaxshilikning yovuzlik ustidan g’alabasini aks etadi. Ibtidoiy jamiyatning ovchilik bosqichidan chorvachilik bosqichiga o’tilgach, insonlarning hayvonlar dunyosiga oid qarashlari birmuncha o’zgargan. Inson o’zini hayvondan farqlab, o’zining ulardan kuchliligiga ishonch hosil qilgach, hayvonlar fe`l–atvori vositasida o’z qusurlaridan kula boshlagan. Natijada inson o’z aqlu farosati orqali hayvonlarni bo’ysundirib, o’z yumushlarini yengillashtirish maqsadida turli-tuman mehnatga jalb etishi, ular vositasida kurashlarda yengib chiqishi ertak voqeligiga aylana borgan.

Sinfiy jamiyat hukmronligi qaror topib tobora chuqurlasha borgani sayin hayvonlar haqidagi ertaklarning g’oyaviy motivlari ham o’zgara borgan. Inson mehnati inson tomonidan qadrsizlantirilgan sinfiy jamiyatda hukmron tabaqaning

jabr-zulmidan qo’rqqan mazlum xalq o’z dilidagi noroziligini ayrim kuchsiz, ojiz hayvonlarning qonxo’r, yirtqich, ochko’z hayvonlar bilan munosabati shaklida yashirin badiiy ko’rinishda – majozan ifodalash orqali mavjud ijtimoiy-siyosiy munosabatlar mohiyatini ko’rsatishga moyillik kuchaya borgan. Natijada *majoziy (allegorik) ertaklar* paydo bo’lib, ertakchilikka tanqidiy yo’nalish kirib kelgan. Majoziy ertaklardagi hayvon obrazlari ko’chma ma`nodagi personajlar bo’lib, ular xuddi insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadilar: o’ylaydilar, gapiradilar, jabr-zulmga norozilik bildiradilar, yaxshilarga-yaxshilik, yomonlarga-yomonlikni tilaydilar.

Bo’ri, tulki, sher, quyon, qo’zichoq, echki, qo’y, ho’kiz, xo’roz, it, kabi hayvonlar majoziy ertaklarning doimiy allegorik personajlari hisoblanadilar. Ularning har biri o’ziga xos fe`l –atvori bilan ertak tarkibidagi ma`lum estetik vazifani, g’oyaviy maqsadni ochirishga xizmat qiladi. Chunonchi, sher-hayvonlar shohi, eng kuchli jonzot. U ko`pincha zolim va qonxo’r podsho timsolini ifodalasa, bo’ri - aqli kalta, nodon, laqma, zo’ravon saroy amaldorlari qiyofasida harakat qiladi. Tulki esa ayyor, firibgar, aldamchi, faqat o’z manfaatini ko’zlab yashovchilarning tipik qiyofasini ifodalovchi majoziy obraz bo’lsa, ilon - ichi qora, niyati buzuq, tilyog’lama va sovuqqon kishilar timsolida qo’llanadi. Qarg’a – donishmand, tadbirkor; quyon-qo’rqoq; xo’roz va echki - dono; ho’kiz - mehnatkash, chidamli; it - vafodor, qo’riqchi; ot - eng vafoli hamdam, yoqimli va sadoqatli do’st; eshak –farosatsiz kishilar sajiyasida obrazlantiriladi. Ko’pincha uy hayvonlari – ijobiy, yovvoyi va yirtqich hayvonlar - salbiy sajiyalarda majoziylashtiriladi.

“Och bo’ri” ertagida bo’ri aqli kalta, nodon, laqma ko’rinishda talqin qilingan. U bir kuni xo’rozni ushlab olib, uni yemoqchi bo’libdi. Xo’roz esa unga meni piyoz va kashnichsiz yesang, maza qilmaysan debdi. Bu gapga ishongan bo’ri xo’rozni shu yerda qoldirib, piyoz bilan kashnich qidirib ketibdi. Xo’roz bundan foydalanib qochib qolibdi.

Bo’ri yana yo’lida qo’zichoqqa duch kelib, uni ham ushlab olibdi va yemoqchi bo’libdi. Qo’zichoq esa meni tuzsiz yeb bo’lmaydi degancha bo’rini

chalg’itib, qochib ketibdi. Bo’ri tuz axtarib ketar ekan, otga duch kelibdi va uni ham yemoqchi bo’libdi. Ot bo’riga: “Otam o’lmasdan avval tuyog’imga bir nasihatnoma yozib qoldirgan edi, Shu nasihatnoma senga tegishli, sen shuni o’qib olib, so’ngra meni yeya ber”,-debdi. Laqma bo’ri otning gapiga ishonib, uning tuyog’i ostiga engashibdi. Shunda ot qattiq tuyoqlari bilan bo’rini boplab tepibdi. Bo’ri til tortmay voqea joyida o’libdi. Uning laqma va nodonligi boshiga falokat keltiribdi.

Siyosiy – ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish maqsadida yaratilgan majoziy ertaklarda satira ustivor bo’ladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar o’tmishda axborot berish maqsadida kattalarga aytilib kelingan bo’lsa, XX asr o’rtalaridan e`tiboran kattalar tomonidan bolalarga aytiladigan bo’ldi.

Maishiy – hayotiy ertaklar. Bu ertaklarning mazmuni bevosita real hayotga bog’liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon bo’lib keladi. Maishiy-hayotiy ertaklar ortiqcha uydirmalardan deyarli xoli bo’lib, ularda ayrim hollardagina fantastik detallar uchrashi mumkin.

Maishiy-hayotiy ertaklarda voqelik makoni aniq shahar yoki qishloqda kechadi, aniq qahramon ishtirokida yuz beradi. Ular mazmun-mundarijasi va g’oyaviy yo’nalishi, obrazlariga ko’ra sehrli-fantastik va hayvonlar haqidagi ertaklardan farq qiladi. Ularda aniq shaxsning o’z aql kuchi, tadbirkorligi, chidam va matonati, yuksak insoniy fazilatlari tufayli murod-maqsadiga yetiShuvi ko’rsatib beriladi. Shu sababli maishiy-hayotiy ertaklar syujetini ijtimoiy-maishiy mazmundagi voqelik tashkil etadi. Ularning aksariyatida jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklar, nosozliklar, mehnat ahlining hukmron tabaqa vakillaridan noroziligi umumlashma obrazlarda ochib beriladi. Bunday ertaklarning aksariyati tanqid qilishga asoslanganligi tufayli shartli ravishda hajviy ertaklar deb yuritiladi. Biroq aytish joizki, maishiy ertaklarning barchasi ham tanqidga asoslanmagan, shu vajdan bunday ertaklar o’zbek folklorshunosligida shartli ravishda tanqidga asoslangan ertaklar tarzida yuritiladi.

Hajviy –maishiy ertaklar asosida o’tkir satira yoki zavqbaxsh kulgi (yumor) - yotadi. Bunday ertaklar hajman ixcham, mazmunan lo’nda bo’ladi.

Satirik ertaklar yumoristik namunalarga nisbatan ko’proqdir. Ular sinfiy munosabatlar keskinlashuvi sharoitida yaratilgan. Bu xildagi ertaklarning o’z qahramonlari bor. Bular – Kal, kambag’al sodda dehqon va dono qiz, Ko’sa va boshqalar, ular ko’p hollarda kamsitilganlarning umumlashma siymolari. Bu safda No’xatpolvon ham bor. Bu personajlar hajviy-maishiy ertaklar tarkibida ko’p holatlarda xasis boy, ochko’z, savodsiz qozi, zolim podsho, berahm qaroqchi singari hukmron tabaqa vakillariga zid qo’-yilib tasvirlanadi. Hajviy-maishiy ertaklarda ko’chma ma`noli savol-javoblar, topishmoq aytishuvlari, so’z o’yinlari shaklida qurilgan dialoglar asosida raqib tarafning kamchiliklari ochib tashlanadi. Ularda personajlarning portretini tasvirlashga alohida e`tibor qilingan, aniqrog’i, sajiyasining ijobiymi yoki salbiyligiga qarab uning portreti chizilgan.

Satirik ertaklarda ko’p hollarda sinfiy ziddiyatlar ifodasi kengroq mavqeda turadi.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik dididа, axloqiy qarashlarida, e`tiqodida kechgan o’sish-o’zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayricha ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o’qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma`naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta`sir ko’rsatib kelmoqda.

Ertaklarda tayyor qolipga aylangan an`anaviy formulalar bisyor. Ular o’quvchi va tinglovchini qiziqtirishdan tashqari, voqealarni bir-biriga bog’lashda, uzoqni yaqin qilishda muhimdir. Masalan, «Qirq hujra bor, hujraning qirqinchisiga kirma», «Qilichni bir silkitdi, qilich qirq gaz cho’zilibdi», «Endi so’zni boshqa tomondan eshiting», «shohning qahri kelib, ilonday zahri kelib», «oy desa og’zi bor, kun desa-ko’zi bor, shirindan shirin so’zi bor», «suv ichsa tomog’idan, sabzi yesa biqinidan ko’rinadi», «kulsa – og’zidan gullar sochilar, yursa-oyog’idan tilla sochilar», «yo’l yurib, yo’l yursa ham mo’l yurib, tog’u sahro, cho’l yurib…» kabi an`anaviy qolip shaklidagi ifodalarni istagancha keltirish mumkin.

Ertaklar o’z janriy tabiatiga xos badiiy-kompozision qurilishga ega. Ular bir xil badiiy shakliy qoliplar doirasida yaratiladi va ijro etiladi. Kirish, boshlama, tugun, epik sarguzasht va tugallama ertak kompozision qurilmasining asosini tashkil etadi.

Ertaklar an`anaviy kirish bilan boshlanadi. An`anaviy kirishning vazifasi tinglovchilar e`tiborini bir nuqtaga jalb etish, ertak tinglashga hozirlashdir. Odatda, an`anaviy kirishlar saj’langan nasriy parchalar shaklida bo’lib, zamon va makon haqidagi ma’lumotlarni ifoda etadi. «Gulpari» ertagi kirish qismida bu holatni kuzatish mumkin. «Bir bor ekan, bir yo’q ekan, bo’ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, g’oz karnaychi ekan, o’rdak surnaychi ekan, toshbaqa tarozidor ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan. Qadim zamonlarda Gulzor degan bir mamlakat bo’lgan ekan. Shu mamlakatda donishmandlikda tengi yo’q cholu kampir yashagan ekan».

Goho kirish qismi ertakdagi hajviy ruhga ishora xarakterida bo’lishi mumkin: «Taraqa –turuq, omochu bo’yinturuq, Shomirzoi qoqquruq, Boqi charaqi, baroq ko’z darvozaboni, hayhot, og’zingga novvot, siynani siynaga qo’yib, diqqina xap yot, oftobda shayton ko’ndalang, o’rikda maymun tippa-tik, qonim joningga jippo-jip. Ammo-lekin, tomga bekin, zamonlarning zamonida bir podsho bor ekan” kabi.

Kirish qism ayrim hollardagina ertak boshlamasiga ulansa, ayrim hollarda o’zicha mustaqil holda qolaveradi. Ertakda boshlama syujet chizig’ida doimiy element hisoblansa-da, syujet rivojiga aloqador emas, balki harakatning tashkil topishiga turtkki bermaydi. U qahramonlar haqida ma`lumot beradi. Syujet chizig’ida sodir bo’ladigan voqea- hodisalarning qaysi zamon va makonda kechajagidan xabar beradi. Boshlama syujet yo’nalishida noaniqlik va umumiylik kasb etadi. «Bor ekanda, yo’q ekan. Och ekanda, to’q ekan. qadim zamonda bir podsho o’tgan ekan» kabi.

Ertaklarning syujeti, odatda, ikki asosiy qismdan tashkil topadi: birinchisi – *bayon qismi,* ikkinchisi *-sarguzasht qismi*. Birinchisida syujet voqealarining

rivojini ta`minlovchi asosiy ziddiyatlar aytilsa, ikkinchisida shu ziddiyatlar bevosita ochib beriladi.

Ertaklarning oxirida tugallama keladi, ular ertakning yakuniy qismini ta`riflaydi va hamisha optimistik ruhdagi intiho sifatida xalqning yengilmas ruhi va qudratini namoyish etadi.

2.2. Ertak ustida ishlash metodikasi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ertaklar bilan amaliy tanishtiriladilar.

Ertakning sarguzashtlarga boy syujeti, voqea rivojidagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi; undagi mard, kuchli, dovyurak, topqir, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, undagi ezgu kuch – yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertaknidagi hikoya qilish shakli, bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarli. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, sahiy, adolatli, yoki ularning aksi bo‘lgan yovuz, bahil, ochko‘z obrazlarga bo‘linadi.

Ertakning pedagogik qimmati shundan iboratki, bolalar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik g‘alaba qozoonib, yomonlik mag‘lub bo‘lganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar. Ertak bolalarda qahramonlar xatti-harakatini muhokama qilib baholash ko‘nikmasini o‘stiradi. O‘quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida qahramonlarning yaxshi va yomon fazilatlarini muhokama qiladilar, o‘zlariga yoqqan personajning nima uchun yoqtirganliklarini bayon etadilar, ertak g‘oyasini ochib berishga harakat qiladilar.

Ertakda xalq o‘z hayotini o‘zi hikoya qiladi, shuning uchun o‘quvchilar ertakni o‘qmsh bilan ma’lum davrdagi xalq hayoti bilan tanishadilar, o‘sha davrda yashagan insonlarning orzu-istaklarini bilib oladilar.

Ertak o‘quvchilar nutqini o‘stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak matni bog‘lanishli nutqni o‘stirish uchun manba bo‘la oladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar ertakni juda qiziqib, obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, ertakning o‘ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini saqlagan holda jonli aytib beradilar.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq hayvonlar haqidagi ertaklar aniq hayotiy hikoya tarzida o‘qitiladi va tahlil qilinadi. Ertak matni bilan ishlashda tanlab o‘qish, savollarga javvob berish, o‘quvchilarning o‘zlari savol tuzib javob berishlari, so‘z bilan va rasm chizish orqali tasvirlash, reja tuzish, qayta hikoyalash, ertak aytish kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bu ertaklarda

hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni odamlar xarakteriga taqqoslash tavsiya etilmaydi. Maktab tajribasidan ma’lumki, kichik yoshdagi o‘quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki bilan turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya tarzda qabul qiladilar. Ertakni o‘qib, tahlil qilinganda assosiy e’tibor uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qqahramonlarning xatti-harakaatini, o‘zaro munosabatini to‘g‘ri tasavvur etishga qaratiladi. Ertak ustida ishlashning oxirgi bosqichida “Ertakdan sizga juda yoqqan joyini o‘qing, nima uchun yoqqanini ayting. Hayotinggizda mana shu ertakdaginga o‘xshash voqealar bo‘lganmi?” kabi savol va topshiriqlar yordamida o‘quvchilar ertak mazmunini qay darajada tushunganliklari aniqlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari hayotiy-maishiy ertaklar bilan ham tanishadilar. O‘quvchilarni bunday ertaklarni o‘qishga tayyorlash hikoyani o‘qishga tayyorlash kabi bo‘ladi. Ertakni o‘qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o‘qituvchi yordamida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-biriga bo‘lgan muunosabatlarini aytadilar, shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar iqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertak qismlarini rollarga bo‘lib o‘qiydilar.

Bulardan tashqari, bolalar adabiy ertaklar bilan ham tanishadilar. Bunday ertaklar “sehrli”, oddiy turmushga tegishli elementlarni tasvirlovchi ertaklardir. Ertakning mazmuni xalqniki, ammo u yozuvchi tomonidan badiiy ishlangan.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboraoar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi.

Ertak ustida mshlashda quyidagi vaziyafa va tamoyillarga amal qilinadi:

- Ertak orqali yuksak axloqiy tarbiya berish.
- Ertak matni asosida o‘quvchilar nutqini o‘stirish.
- Ertak orqali o‘zbek xalqining milliy koloritini o‘rgatish.
- Ertak vositasida o‘quvchilarda ijodkorlik xislatlarini tarkib toptirish.

- Ertakdagi syujet orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini o‘stirish.

1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishni o‘rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o‘qituvchi aytib berishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ertakni izohli o‘qish darsining qurilishi quyidagicha bo‘lishi mumkkiin:

1) o‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
2) o‘qituvchining ertakni ifodali o‘qishi, yod aytib berishi;
3) ertakni o‘quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish;
4) ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilish; undan ayrim tasviriy vositalar va sinonim so‘zlarni topish; ayrim so‘zlar ma’nosini izohlash;
5) ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish);
6) ertakni aytish;
7) umumlashtiruvchi suhbat (ertak g‘oyasini ochish);
8) ma’lum vazifa bilan ertakni qayta o‘qish;
9) vazifani tekshirish va yakunlash (“Nima uchun ertakni qiziqib o‘qidik?” savoliga javob berish);
10) uyda ertakni boshqalarni ham qiziqtiradigan qilib o‘qib yoki aytib berishga tayyorlanish.

Mavzu: Rostgo‘y bola

Darsning maqsadi: O‘quvchilarni rost so‘zlashga o‘rgatish, ravon va ifodali o‘qishni rivojlantirish.

Dars tipi: yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: test, matnga ishlangan rasm.

Dars metodi: suhbat, hikoya, amaliy mashq.

Darsning borishi.

1.O‘tgan dars yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilarning o‘qish malakalari tekshirilib ko‘riladi. Testlar vositasida bilimi tekshiriladi.

2.Yangi mavzuni o‘tishga tayyorgarlik. Mavzu yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. Rostgo‘ylikning ahamiyati tushuntiriladi.

-Bolalar, sizlar rostgo‘ylik deganda nimani tushunasizlar?

-Nima uchun biz rostgo‘y bo‘lishimiz kerak? kabi savollarga o‘quvchilarning javoblari tinglanib, so‘ng o‘qituvchi o‘zi javoblarni umumlashtiradi:

-Aziz bolajonlar, yolg‘on gapirish yomon illat. Yolg‘onchi odamni hech kim xurmat qilmaydi. Odamlar uning gapiga bir-ikki marotaba ishonishlari mumkin, lekin keyinchalik yolg‘onchi odam rost gapirsa ham unga hech kim ishonmay qo‘yadi. Shuning uchun biz doimo rost gapirishimiz kerak. Xatto yomon ish qilib qo‘ygan bo‘lsak ham, dadamiz yoki oyimiz so‘kishlarini bilsak ham, qilgan ishimizni yashirmasdan aytishimiz lozim. Shunda ular ham achchiqlaridan tushadilar, bizni rost gapirganimizdan xursand bo‘ladilar.

3.Mavzuni o‘qish. O‘qituvchi ertakni ifolali qilib o‘qib beradi. Ertak yuzasidan dastlabki suhbat:

-Podshoh nega xomush yurar edi?

-Podshoh nima uchun bolalarga gul urug‘i tarqatibdi?

-Bola nega gulni o‘stira olmabdi?

-Podshoh nega farzandlikka bolani tanlabdi?

O‘qituvchi rostgo‘ylik haqida maqol, hikmatli so‘zlarni aytib, rostgo‘ylikning mohiyatini tushuntiradi.

4.Lug‘at ishi: *podshoh* – yurtni boshqaruvchi kishi;

vazir – podshohning yordamchisi;

tadbir – o‘ylab qilingan ish;

xomush – xafa.

5.O‘quvchilarga o‘qitish. Avval jo‘r bo‘lib o‘qitiladi. Keyin ertak 4 qismga bo‘linib, to‘rtta o‘quvchiga o‘qitiladi. 2-qayta o‘qitilayotganda har bir o‘quvchi o‘zi o‘qigan qism mazmunini so‘zlab beradi. 3-marta o‘qitilayotganda ertakni necha qismga bo‘lish mumkinligi o‘quvchilardan so‘raladi va har bir qismga sarlavha toptiriladi.

6.Darsni mustahkamlash qismida test ishlanadi.

1.Podshoh shahar aholisining bolalariga nima tarqattiribdi?

A) Gul urug‘i

B) Yong‘oq

2. Podshoh kimni farzand qilib oldi?

A) Gul o‘stirgan bolani

B) Rostgo‘y bolani.

7. O‘quvchilar reytingi aniqlanib, dars xulosalanadi.

III bob. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishda ertaklardagi maqol va o‘gitlarni tahlil qilishning ahamiyati

3.1. Maqol va o‘gitlar - xalq donishmandligi namunalari

Maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so’z, tanbeh, mashoyixlar so’zi, donolar yoki donishmandlar so’zi, oqinlar so’zi va otalar so’zi atamalari bilan el orasida yurgan bu janr namunalari g’oyat ommaviy bo’lib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Maqol arabcha “qavvola” so’zidan olingan va “aytmoq, so’zlamoq” ma`nolarini anglatadi. “Maqol” so’zi o’zbek tilida ikki ma’noda, avvalo, o’z lug’aviy manosida - “so’z, nutq”ni anglatsa, ikkinchidan, folklorda keng tarqalgan janrni ifoda etadi.

Maqol masal va naql janrlarining yuzaga kelishiga ta`sir ko’rsatgan, masal va naqlning xulosasi, qissadan chiqarilgan xulosasiga aylanganligi tufayli ba`zan masal va ba`zan naql bilan aralashib ketgan. Aslida esa “masal” so’zi ham arabcha bo’lib, “o’xshamoq” ma`nosini anglatsa-da, o’zbek tilida maqol va biror maqsadni izohlashga qaratilgan majoziy hikoya singari ikki ma`noda qo’llanadi. Biroq XX asrga kelib, uni maqol ma`nosida ishlatish cheklanildi. Faqat tojik folklorshunosligida maqolni masal deb atash qaror topdi.

“Naql” so’zi ham maqol ma`nosida qo’llansa-da, arabcha so’z bo’lib, “ko’chirmoq” ma`nosini anglatadi. O’zbek tilida esa “bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq” singari ikkinchi bir manoga ega va xalq og’zaki nasrining mustaqil janrini ifodalovchi ilmiy atama sifatida qo’llanadi. “Yaxshi naql-tomiri aql” maqolida “naql”-maqol ma’nosidadir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og’zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g’oyat ixcham, lo’nda, siqiq va obrazli ifodasidir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma`lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug’iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo’lib yuzaga keladi. Aytaylik, jahondagi barcha xalqlarda ham yashamoqning asosiy sharti-

yemoq va kiymoq bo’lib, buning moddiy negizi ekin ekish va undan mo’l-ko’l hosil olgan holda ham moddiy, ham ma`naviy imkoniyatlarini ta`minlashdir. Ekin ekish uchun yerni qay vaqtda shudgor qilish uning unumdorligini oshiradi? Bu savol javobi necha asrlik dehqonchilik tajribasining axloqiy xulosasi sifatida “Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda” maqolining yuzaga kelishiga sabab bo’lgan.

Maqollar insonlarning turli sohalardagi faoliyatlari jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o’tgan turmush tajribalarining hosilasi-barqaror va o’zgarmas, to’g’ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelganlar. Bu hol maqollarda mavzular doirasini behad kengaytirgan va xilma-xillashtirgan. Binobarin, inson hayoti va turmushining barcha qirralari maqollarda axloqiy bahoga aylangan.

Shuni ta`kidlash o’rinlidirki, hadislar ham maqollarning paydo bo’lishi va taraqqiyotida ma`lum darajada ta’sir ko’rsatgan, aniqrog’i, hadislar jonli so’zlashuv jarayonida qayta ishlanib, yanada ixchamlashib, obrazlilik kasb etgan holda xilma-xil maqollar shaklida faolroq qo’llana boshlagan. Masalan, Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadigan “Alloh Taoloning rozi bo’lishi otaning rozi bo’lishiga va uning g’azabi ham otaning g’azabiga bog’liqdir” hadisi mavjud. U xalq ijodida

“Ota rozi-xudo rozi, Ota norozi-xudo norozi”

“Ota oldida kek urma, odobingga chek urma”

“Ota oldidan o’tma, odob oldidan ketma”

“Ota o’g’li bo’lsang-ota nomini baland tut” singari o’nlab maqollarning yuzaga kelishiga turtki bo’lgan.

Xalq maqollari ko’p asrlik tadrijiy yo’lni bosib, avloddan-avlodga, og’izdan-og’izga o’tish jarayonida yanada silliqlanib, zamon ruhiga yo’g’rilib, teranlashib borgan. Ijtimoiy hayotdagi o’zgarish ularda ham aks topa borgan. M.Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida uchraydigan “Osh totug’i tuz” maqoli arablar istilosidan so’ng arabcha so’zlarning turkiy tilda faollasha boruvi tufayli “Oshning ta`mi tuz bilan” shaklida leksik va sintaktik o’zgarishga uchragan

holda qo’llana boshlagan. Bunda arabcha “ta’m” so’zi turkiy “totuq” so’zini almashtirgan va “bilan” ko’makchisi yordamida maqolning transformasiyaga uchragan yangi shaklda yashashini ta`minlagan.

O’tmishda ustoz-shogird munosabatini ifodalovchi

“Ustoz ko’rgan shogird andin-mandin qarmalar,

ustoz ko’rmagan shogird har maqomda yo’rg’alar”

maqoli qachonlardir ikki qismdan iborat bo’lgan. Unda ustoz shogirdni o’z xonadonidagi tekin xizmatkorlik muddatini cho’zish maqsadida hunari sirini o’rgatishni paysalga solar yoki istar-istamay tushuntirar, shunda ziyrak shogird faqat o’z ustozi ko’rsatmalari bilan cheklanmay, boshqa ustozlar ishlarini sinchkovlik bilan kuzatish asosida mahorat sirlarini o’zlashtirib borar edi. Maqolning birinchi qismida ana shu axloqiy ibrat ifodasini topgan bo’lsa, ikkinchi qismida usta ko’rmagan, yani shogird tushib hunar o’rganmagan kishining har maqomda yo’rg’alishi-uquvsizligi kesatilgan. Davrlar o’tishi bilan ustoz-shogird o’rtasidagi munosabatlardagi o’zgarishlar tufayli maqolning birinchi qismi tushib qolib, maqol yanada ixchamlashgan.

Maqollarda ajdodlarimiz axloqiy qarashlari narsa-hodisalarga munosabatlari, ruhi va tafakkuri sezilib turadi. O’zbek xalq maqollarida o’zbek xalqining dono siymosi, tarixiy taqdiri, mentaliteti, bag’rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga, mehnatga chanqoqligi, bunyodkorligi, mehmondo’stligi, oilaparvarligi, bolajonligi, bolaparvarligi, mehmonnavozligi, to’g’riligi, sevgi-sadoqati, jo’shqinligi, tiyrakligi, g’ayrat-shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g’azabi, betakror urf-odatlari va an`analari yaqqol aks etib turadi. Xalq shu maqollari orqali kelajak avlodiga o’z turmush tajribalaridan saboq beradi.

Maqollar ma`lum vaziyatda, ma`lum voqea-hodisa munosabati bilan fikrni boshlash oldidan, fikr bayoni jarayonida, fikrni xulosalash maqsadida aytiladi. Uni keksayu yosh baravar aytsa-da, ko’proq hayotiy tajriba egasi bo’lgan katta avlod nutqida ko’proq uchraydi. Maqollarni ish jarayonida ham, oddiy yoki jiddiy muomala-munozaralarda ham, to’y-hashamlarda ham aytish mumkin. Har bir gapga bir maqolni qo’shib, fikrni dalillash, tasdiqlash yoki inkor etish asosida

nutqning ta`sir kuchi oshiriladi. Bunday nutq tinglovchini befarq qoldirmaydi, uning his-tuyg'ulariga tez ta`sir qilib, fikrini uyg'otadi, adolatli xulosalarga kelishi va hukm chiqarishini ta`minlaydi. Maqollarning axloqiy hukm sifatidagi mohiyati shunda ko'rinadi, zero, maqollarda hukmdan kechinmaga qarab boriladi. Maqollarda ifodalangan yagona hukm har bir tinglovchida har xil kechinma yo fikr uyg'otishi tabiiy. Lekin baribir barcha bir xil xulosaga keladi.

Maqollar shaklan ixcham bo'lsalar-da, badiiyatiga ko'ra yuksak obrazlilikka egadirlar. Ularda fikr sodda, tabiiy, ravon, silliq va tushunarli bo'lib, tasirchan ifodalanishi ehtiyoji turli narsalar, hayvonlar, o'simliklar va hodisalar obrazlaridan g'oyaviy-badiiy niyatni ifodalashda foydalanishni taqozo etgan. Natijada timsoliy obrazlar vositasida hayotdagi ijobiy yo salbiy voqealarga, insoniy munosabatlarga axloqiy baho berilib, hukmlar chiqarilgan.

Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko'pincha darak gap yo'sinida bo'ladi:

"Ayol tilini ayol bilar",

"Arg'amchiga qil-quvvat",

"Vatanni sotgan er bo'lmas",

"Gavhar yerda yotmas",

"Yomon it egasini qopar",

"Ishni ishchandan o'rgan" kabi.

Ko'p sintaktik butunlikdan iborat maqollar esa, ko'p qismli yoki murakkab maqollar deb yuritiladi. Bunday maqollar bir-biriga o'xshash yoki zid fikrlar bayonidan iborat bo'ladi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan; bir qismi tasviriy mohiyatga ega bo'lsa, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

"Aytmas yerda og'zingni tiy, mehmonga borsang nafsingni",

"Bulbulning sayrashi guldir, mehr xazinasi tildir",

"Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin",

"Yolqitsa ham-yog' yaxshi, yondirsa ham-yoz yaxshi",

“Ishonish bilan kasal bo’lsang, umid qilsang - tuzalasan” kabi yuzlab maqollarda ikkinchi qismi zarbli va asosiy o’gitni ifodalaydi.

Maqollar jonli so’zlashuv tilida yaratilgan va shu taxlitda so’zlanadi. Aksariyati to’g’ri ma`nolarda qo’llansa, ma`lum qismi ko’chma (ramziy va majoziy) ma`no tashiydi:

“Avval o’yla, keyin so’yla”,

“Yosh kelsa-ishga, qari kelsa-oshga”,

“Mehnat, mehnatning tagi-rohat”,

“Vatani borning-baxti bor, mehnati borning -taxti”,

“Vataning tinch-sen tinch” maqollarida to’g’ri mano ustuvor;

“Dunyoni suv olsa-o’rdakka ne g’am?”,

“Bo’rini yo’qlasang, qulog’i ko’rinadi” singari maqollar ko’chma manodagina hikmatlilik kasb etgan. Keltirilgan maqollarning birinchisi beg’am, beparvo, na oila, na el-yurt g’amini o’ylamaydigan, qorni to’ysa bo’ldi-boshqasi bilan ishi bo’lmaydigan kishilarga qarata kesatiqni ifodalasa, ikkinchisida yomon niyatni ko’nglingga solma, tilingga olma, aks holda u o’zingga uradi manosi majoz orqali o’z aksini topgan.

Maqollarda badiiy til vositalari fikrni ixcham va obrazli ifodalashga, tinglovchi qalbida kechinmani tez uyg’otishga xizmat qiladi. Bu jihatdan maqollarda uchrovchi sinonimiya va antonimiya hodisalari e`tiborni tortadi. Maqollar orasida shakli boshqa bo’lsa-da, mazmuni bir xil bo’lib, sinonimik qatorlar hosil qiluvchi namunalar anchagina. Bu motivlar silsilaviyligi asosida yuzaga kelgan. “Kattani-katta bil, kichikni kichik” maqolidagi axloqiy motiv “Kattaga tegma-yig’larsan, kichikka tegma-uyalarsan”, “Kattaning uyalgisi kelsa-kichikka tegadi”, “Katta-kattaligida tursin, kichik-kichikligida”, “Kattaga kattalarcha bo’l, kichikka-kichiklarcha”, “Kattalar aytsin, kichiklar eshitsin”, “Kichikni maqta, kattani saqla”, “Kattaga-hurmat, kichikka-shafqat” kabi o’nlab maqollarda aksini topib, butun bir silsilaviy sinonimik qatorni yuzaga keltirgan. Bu xildagi maqollarni shartli ravishda sinonim maqollar deb yuritish mumkin; ular, odatda, mazmuniga ko’ra tasnif qilinganda bir mavzu doirasida beriladi.

Aksariyat maqollarda ikki mantiqiy markaz o’zaro ziddiyatli munosabatda beriladi, bunda tazod sanati asosiy badiiy-tasviriy vosita sifatida estetik vazifani o’taydi: “Avval o’yla, keyin so’yla”, “Ko’p o’yla, oz so’yla”, “Avval-bahor, oxir-xazon”, “Bas etgan o’zar, qasd qilgan to’zar”, “Boyning o’g’li kelsa-to’rga, kambag’alning o’g’li-go’rga”, “Yomon o’g’il-molga o’rtoq, yaxshi o’g’il-jonga”, “Ishlagan yerni yashnatar, ishlamagan qaqshatar” singari maqollarda o’git mag’zi yaxshi va yomon nisbatlarining o’zaro qarama-qarshi qo’yilishi natijasida yarqirab turibdi va bu maqollarda antonimiya hodisasi tarzida qaraladi.

Maqollarda saj`lar faol bo’lib, o’ziga xos ichki qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan va ularda ohang jilolarining jozibasini oshirgan: “Ishlagan-tishlar, ishlamagan-kishnar”, “Nodon kuzatar, dono tuzatar”, “Otaga mol, qizga-jamol” va boshqa qator maqollarda saj sanati yuzaga keltirgan ohangdoshlik kompozision bir butunlikni va fikriy-mazmuniy yakunlanganlikni taminlab turibdi. Bunda ohangdoshlik ko’pincha alliterasiyalar zamirida kechib, maqollarga ritmik o’ynoqilik bag’ishlagan. Xususan, ikki va undan ortiq qismli maqollarda alliterasiya qismlarni ohangdoshlik asosida o’zaro bog’lab turuvchi yetakchi estetik vazifani bajargan.

Maqollarni tasnif qilishning xilma-xil ko’rinishlari mavjud. Jumladan, alifbe tartibida, mavzulari, sinonimlik yoki antonimlik mohiyatiga ko’ra, etimologiyasiga ko’ra, to’g’ri yoki ko’chma ma`no tashishiga hamda qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko’ra guruhlash yo tasnif qilish pareomiologiyada an`anaga aylangan. Ammo hozircha o’zbek maqolshunosligida alifbe tartibi va mavzusiga ko’ra tasnif qilish ananasiga ikki jildlik «O’zbek xalq maqollari” (1987) va ko’p jildlik «O’zbek xalq ijodi” ruknida «O’zbek xalq maqollari” (1989) va «O’zbek xalq maqollari” (2003) hamda etimologiyasiga ko’ra Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning «Hikmatnoma” (1990) va “Ma`nolar xazinasi” (2003) to’plamlarini tuzishda amal qilingan.

Xalq maqollari yozma adabiyotda hikmatli so’z (aforizm)larning yuzaga kelishiga kuchli ta`sir ko’rsatdi. Ahmad Yassaviy-hikmat, Rabg’uziy-foyda va Alisher Navoiy-tanbeh deb atagan bu hodisa yozma adabiyotgagina xos bo’lib,

maqoldan muallifining aniqligi, hikmatdan iborat ma`no-mazmunining kitobiy uslubda ifodalanganligi, hajman nisbatan yoyilganroq shakldaligi bilan ajralib turadi. Abu Rayhon Beruniy «Hikmatlar”i (1973), Abu Ali ibn Sino «Hikmatlar”i (1981), Amir Xusrav Dehlaviy «Hikmatlar”i (1973), Alisher Navoiy “Aforizmlar”i (1947), “Abdulla Qahhor hikmatlari” (1990), shuningdek, “1001 hikmat”, “Tafakkur gulshani” va boshqa o’nlab to’plamlar ana shunday xulosaga kelishga asos bo’la oladi.

Xullas, maqollar xalq tafakkurining kaliti bo’lib, hajman siqiq, mazmunan purhikmat, ommaviy va keng tarqalgan janridir. Ularda kishilikning tabiat va jamiyatga munosabatining hamma qirralari axloqiy-falsafiy hukm tarzida baholangan. Maqollar ota-bobolarning asrlar davomida to’plangan hayotiy tajribalarini zamonlar osha yetkazishda manoviy ko’prik bo’lib, avlodlarning bir-birlariga bog’lanishlarida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

3.2. Ertaklardagi maqol va o‘gitlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini go‘zal xulq ruhida tarbiyalash

O‘zbek xalq ertaklarida tasvirlangan har bir voqea-hodisa tinglovchi yoki o‘quvchiga o‘ziga xos tarbiya bera oladi: yomonni qoralash, yomonni jazolash-yaxshi bo‘lishga undash; yaxshini baxtga sazovor qilish, uni mukofotlash-yaxshini namuna qilib ko‘rsatish va boshqalar. Tarbiya berishning bunday usuli o‘zbek xalqining azaliy o‘ziga xos xarakteri tufayli kelib chiqqan bo‘lishi kerak. Chunki xalqimiz sharqona tarbiyaning talablari asosida asrlar davomida zolim va bag‘ritosh kishilarni qoralash bilan birga, barcha mazlum va jabrdiyda odamlarni himoya qilib kelgan. Bunday odamlar o‘zlarining rahm-shafqatliligi va beozorliklari bilan johil va zolimlarga qarshi qo‘yib kelingan. Yaxshini mukofotlash va baxtga erishtirish, aksincha, yomonni jazolash va shu yo‘l bilan odamlar orasida yaxshilikni targ‘ib qilish asoslari «Qur’on»ga, hattoki «Avesto»ga borib taqaladi. «Avesto»dagi uchta asosiy qat’iy qonun mavjudligini esga olish lozim: Yaxshi niyat. Yaxshi so‘z. Yaxshi amal.

Bizningcha, ertaklarda salbiy va ijobiy bo‘lgan ikki xil xarakter qirralari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bular: ochko‘zlik, hasadgo‘ylik, baxillik, xudbinlik, qo‘rqoqlik hamda saxiylik, rahmdillik, bag‘rikenglik, dovyuraklik va jasurlik. Inson xarakteridagi bu xususiyatlar azaliy ekanligini hisobga olsak va bugungi kunda ham biz mana shunday asosiy xarakter belgilariga ega bo‘lgan yoshlarni ko‘rishimiz mumkinligini hisobga olsak, ertaklarni qaysidir davr bilan bog‘lash zarurayati yo‘qligini anglaymiz. Demak, ertaklar har doim o‘z tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmaydi. Biz bugungi kunda ham ular yordamida yoshlarga tarbiya berishimiz mumkin.

Har bir ishning avvali salom bilan , har bir gapning boshi salom bilan boshlanadi. Salom berish odobi bizning milliy qadriyatlarimizning, urfodatlarimizning bir bo‘lagidir. Salom berganda ham shunchaki emas, balki “Assalomu alaykum” deb , bu so‘zning ma’nosini anglab yetgan holda salom berish qadr e’tiborlidir.

Salomlashish odobi ertaklarda ham aks etgan. Ertak qahramonlari odobli va go‘zal xulqli insonlar sifatida har yerda va hammaga salom beradilar. Xattoki yovuz yalmog‘iz, qonxo‘r ajdar, devlarga ro‘baro‘ kelganlarida ham ularga salom beradilar.

“Kichkiinajon kichkina” ertagida ham aka-ukalur salomi tufayli omon qoladilar: “...Ilonlar shohining oldiga Kichkinajon-kichkina assalomu alaykum, deb kirib boribdi. Ilonlar shohi odamzodning shu shirin so‘zi borda , bo‘lmasa ularni yutiyu quritar edim, debdi-da, bolani mehmon qilibdi. Gap orasida Kichkinajon-kichkiina tog‘ orasila kalari va xizmatkorlari borligini aytibdi. Ilonlar shohi ularni ham oldirib kelibdi. Kichkinajon-kichkiina akdariga:”Qo‘rkmanglar, ular bizga tegishmaydi”,- debdi. Ilonlar shohi esa ichida:”Bularning salomi hurmati, bugun tinch-omon saqlayman. Ertan mazza qilib yutaman”,-deb o‘ylabdi. Buni hech kim bilmabdi. Shunday qilib ilonlar shohi har kecha ularni yutishni mo‘ljallab-rejalab qo‘yar emish, ular bo‘lsa ertalab uning oldiga salom berib kirib, omon qolisharmish.” [10]

Ertaklarda ajoyib sarguzashtlar bayon etilishi bilan birga chuqur ma’noga ega bo‘lgan o‘gitlar, hikmatli so‘zlar ham uchrab turadi. Bu hikmatlarga amal qiilish, yoshi ulug‘larning o‘gitlarini doimo quloqda tutish sabali ertak qahramoni yo‘lida uchragan xavf-xatarn yengib o‘tadi, qo‘yilgan shartlarni bajaradi, murod-maqsadiga yetadi.

Masalan, “Ota vasiyati” ertagida[11] ota o‘z o‘limidan avval uch o‘g‘lini oldiga chaqirib vasiyat qiladi. Ertakda tasvirlanishicha, chol katta o‘g‘lini chaqirib: “O‘g‘lim, men o‘lsam uch kun go‘rimni poylaysanmi?” - deb so‘raganida, to‘ng‘ich o‘g‘il rad javobini beradi. O‘rtancha o‘g‘lidan ham shu javobni eshitgan chol kenjani huzuriga chaqirtiradi. Kenja esa “ota, uch kun emas, yuz kun poylash desangiz ham poylayman” deydi.

[10] Ikki oy, ikki yulduz. O‘zbek xalq ertaklari. Toshkent.: “Meros”nashriyoti. 1992.65-bet.
11.O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent, 1981, 148-149-betlar.

Haligi odam o‘lganidan keyin vasiyatga ko‘ra kichik o‘g‘il otasining go‘ri yoniga borib poylab yotadi. Tun yarim bo‘lganda, bir oq ot yarog‘-aslahalari bilan birga osmondan tushib, go‘rni uch marta aylanadi. Shu payt bola otni ushlab olib: «Nima uchun sen go‘rni uch marta aylanding?» - deb so‘raydi. «Men otang tirikligida uning amrida yurardim, hozir otangning go‘rini ziyorat qilgani keldim», - deydi va yolidan bir tola olib bolaning qo‘liga berib: «Qachon boshingga bir mushkul ish tushsa, shu mo‘yni tutatsang, hozir bo‘laman», - deydi. Kenja ikkinchi kecha go‘rni poylaganida osmondan tushgan qora otni, uchinchi kecha esa qabrni ziyorat qilish uchun ko‘kdan tushgan saman otni ushlab oladi. Bu otlar ham bolaning otasi tirikligida unga xizmat qilgani uchun yolidan bir tukdan berib ketadilar. Kenja ana shu otlar berib ketgan tuklarni tutatganda ular darhol hozir bo‘ladilar va bola ular yordamida podsho shartini bajaradi.[12]

Ota vasiyatiga sodiq qolgan kenja qabr yonida uch kecha poyloqchilik qilish orqali sehrli ko‘makchiga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, otasiga xizmat qilgan sehrli arg‘umoqlar kenja ixtiyoriga o‘tadi.

O‘zbek xalq ertaklarida bir farzand, ko‘pincha kenja farzandning, ota-ona xonadoniga alohida mehr qo‘yganligi, ota nasihatini har qanday boylikdan ustun qo‘yishi, ota chirog‘ini yoqib, uning ishini, kasbini davom ettirishi, ota topshirig‘ini so‘zsiz bajarishi kabi xususiyatlarning barchasi bu personaj oila muhiti, oilaviy an’analar, oila qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligidan dalolat beradi. «Mulla panqush» ertagida keksayib, og‘ir kasal bo‘lib qolgan ota o‘g‘illarini birma-bir yoniga chaqirib, ularning har biriga «Nasihat kerakmi, mol-dunyo kerakmi?» - degan savol bilan murojaat qiladi. Ikki katta o‘g‘li nasihatdan ko‘ra mol-dunyoga ega bo‘lishni afzal ko‘radilar. Kenjatoy o‘g‘li esa «Ota, menga mol-dunyo kerak emas, nasihat qilsangiz bo‘ladi», - deb javob beradi. Otasi «rahmdil bo‘l, jonivorga ozor berma» deb nasihat qilib, yonidan bir pichoqni chiqarib beradi. Kenjatoy otasining nasihatlariga amal qilgani holda «mulla panqush» nomli sehrli pichoq yordamida baxtga erishadi.

[12] Kenja botir. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent.: Cho‘lpon, 1991, 59-62-betlar.

Mazkur syujet asosida yaratilgan «Ernazar bilan Kimonazar»,[13] «Sehrli pichoq» ertaklarining qahramoni kenja o‘g‘il ham otasining nasihati tufayli boy-badavlat bo‘lib, murodiga yetadi.[14]

«Aqlli o‘g‘lon» ertagida to‘ng‘ich va o‘rtancha o‘g‘illar otasining «kun chiqarga borsang borgin, ammo aslo kunbotarga bormagin» degan nasihatiga amal qilmasdan safar chog‘ida bedarak yo‘qolishadi. Kenja o‘g‘il esa otasining nasihatiga amal qilgani uchun akalarini qutqarib, o‘zining aql-idroki bilan podsho qiziga uylanadi.[15]

«Kenja o‘g‘il, qumursqa va sirli shamshir» ertagida ota ikki katta o‘g‘liga ho‘kizni qo‘shga qo‘shib, yer haydash kerakligini aytganida ular otasining gapini nazarga olmay, ovga jo‘nab ketadilar. Kenja o‘g‘il esa otasi aytganiday qilib, qo‘sh haydayotib, bir xum oltin topib oladi.[16]

“Shamshirboz” ertagida[17] tasvirlanishicha bir boyning uch o‘g‘li bo‘lgan ekan. Kunlardan bir kuni boy ularni savdoga jo‘natibdi.Safarga chiqishlaridan oldin boy o‘g‘illarini chaqirib: “Falon qishloqqa boirb yotmanglar, undan o‘tib keyingi qishloqqa borib yotinglar. Qaerga borsangiz ham qal’adan tashqarida yotmanglar, qal’a ichida yotinglar”,-deb tayinlaydi.

Kech kirganda uch og‘a-ini bir joyga yetib borishibdi. Akalari shu yerda tunab qolishmoqchi bo‘lishibdi. Kenja o‘g‘il Shamshirbozni esiga otasining nasihati tushib, akalariga aytibdi, ammo katta akasi Abbos indamay yuklarni tushira beribdi. Akalari tez uxlab qolibdilar.Shamshirboz esa poyloqchilikka turibdi.

---

[13] Zumrad va Qimmat. O‘zbek xalq ijodi. Nashrga tayyorlovchi: K.Imomov. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – B.40-57.

[14] Kenja botir. O‘zbek xalq ertaklari. To‘plovchi va so‘zboshi muallifi: M.Jo‘raev. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991. – B.137-155.

[15] Namangan ertaklari. Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchilar T.G‘oziboeva, N.Xojimurod qizi, A.Sobirov. - Toshkent: Sharq, 1998. – B.96-100.

[16] «Kenja botir». – B.65-82.

[17] Gulpari. O‘zbek xalq ijodi. 129-bet.

Tunda u otlarning sharpasini yeshitib, o‘sha tomonga borib , qaroqchilar to‘dasini ko‘ribdi. Ularni yengib, barmoqlaridan bittadan kesib olib, akalarini oldiga qaytib hech narsa bo‘lmagandek turibdi.

Ertalab yo‘lga tushib, kechga yaqin bir mamlakatga yetib boribdilar. Shu yerda tunashga qolishibdi. Ikkinchi kechada Shamshirboz ajdar bilan olishib, uning terisidan bir tasma olib qo‘yibdi.

Uchinchi kuni kech tushganda bir shahar darvozasiga yetib borishibdi. Darvozalar berkitilgan ekan, qal’a tashqarisida qolishibdi. Bu kecha Shamshirboz ularni yuklarini o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan qaroqchilarni aldab, xazinaga o‘g‘irlikka tushishni ko‘ndiradi va devordan oshayotganlarida barchasini kallalarini olib, har birining bittadan qulog‘ini kesib oladi. Ularni shahar ichiga kiritmay, qaroqchilarga esa darvozani ochib bergan darvozabonni ham jazolaydi, chunki u qaroqchilarga sherik edi.

Ertasiga qaroqchilar o‘limi haqidagi xabar butun shahar bo‘ylab tarqabdi. Bularni musofir bo‘lganlari uchun tutib ketibdilar. Shamshirboz podshoga qaroqchilarni o‘ldirganini aytib, ularning quloqlarini ko‘rsatibdi. Podsho uning dovyurakliga qoyil qolib, qizini unga bermoqchi bo‘libdi. Ammo Shamshirboz podshoga katta akasini kuyov qilishini iltimos qilibdi. To‘y o‘tgach, ikkinchi akasi bilan yana savdoga jo‘nabdi.

Bir yurtni ajdar egallab, har kuni bir qiz yer ekan. Navbat podshoning qiziga yetgan ekan. Shamshirboz ajdarni o‘ldirib, qizni qutqaribdi. Podsho katta qizini ikkinchi akaga, kichik qizini Shamshirbozga beribdi. Ular uzoq umr ko‘rib, murod-maqsadlariga yetibdilar.

Ertakdan ko‘rinib turibdiki, kenja o‘g‘il Sharshirboz otasining nasihatini doimo esida saqlagan. Akalarining ra’yiga qarshi chiqmay, ular aytgan joyda tunagan bo‘lsa ham, otasining o‘giti tufayli doimo sergak bo‘lgan va o‘zlariga qaratilgan xavf-xatarni yenggan, o‘zining va akalarining hayotini saqlab qolib, baxtiga erishgan.

“Uch nasihat” ertagida[18] esa bola nasihatlarni pulga sotib oladi. Bir savdogar kasal blib bor davlatini tugatibdi.Xotini vafot etgach, o‘g‘li bilan yolg‘iz qolibdi. O‘g‘lini savdo ishiga o‘rgatmoqchi bo‘lib, topganingni uyga tashgin, deb nasihat qilib, unga pul berib. Otasidan shu vaqtgacha pul olmagan bola hayron bo‘libdi.

Ertasiga bola bozorga boribdi. U yerda bir odam “Kim nasihat eshitadi?” deb baqirib qo‘yib, indamay choy ichib o‘tirganini ko‘ribdi. Bola bir so‘mini berib, nasihatini sotib olibdi. Nasihat shunday ekan:

To‘g‘ri yo‘ldan borsang, yetarsan murodga

Egri yo‘ldan borsang, qolarsan uyatga.

Keyingi safar bola

Hunar bilsang, o‘zarsan,

Hunar bilmasng , to‘zarsan, -degan nasihatni sotib olibdi.

Uchinchi safar bola “To‘g‘ri til to yorar,

Egri til bosh yorar” degan nasihatni sotib olibdi.

Oasi pullarni nasihaiga sarflaganini eshitib, undan xafa bo‘lib, uydan haydabdi.

Bola yig‘lab o‘tirsa, bir savdogar uni ko‘rib Hol-Ahvol so‘rabdi. Bola bo‘lgan voqealarni aytib beribdi. Savdogar uni shogirdlikka olibdi.

Bir kuni ular savdoga yo‘l olishibdi. Yulda suvsizlikdan qiynalib bir quduqqa yetishibdi. Savdogarning yana bir shogirdi suvga tushibdi. Quduq ichida bir devning go‘zal xotini bor ekan. Shogird unga mahliyo bo‘libdi. Dev kelib uni bbo‘g‘ib o‘ldiribdi. Shogird chiqavermagach, savdogar o‘zi quduqqa tushibdi, u ham o‘libdi. So‘ng bola o‘zi quduqqa tushibdi, ammo devning xotiniga qaramabdi. Dev nega xotiniga qaramayatganini so‘raganda, unga birinchi nasihatni aytibdi. Dev xursand bo‘lib, uni yuqroiga olib chiqib, tuyalarini sug‘orishibdi, yo‘lga ravona qilibdi.

[18] Aql bilan davlat. Ertaklar to‘plami. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1995, 72-bet.

Manzilga yetib borgach, saroybonning savdogar va uning shogirdi, nega mollar ozligi haqidagi savoliga ikkinchi nasihatga amal qilgan holda , yolg‘on qo‘shmay bo‘lgan voqealarni aytib javob beribdi. Saroybon bolaning rost gapirganidan xursand bo‘libdi. Karvonboshi va shogirdning o‘lganini, mollarni qaroqchilar tunaganini u bilar ekan.

Bir oz vaqt o‘tgach, uni karvonboshi qilib tayinlabdi. Bola ko‘p do‘stlar orttiribdi, obro‘si ko‘tarilaveribdi. Shunda u o‘ziga nasihat qilgan oqsoqolni shaharga hokim, otasini esa unga vazir qilishni xalqdan so‘rabdi. Xalyiq rozi bo‘libdi. Shunday qilib bola nasihatlarga amal qilgan holda o‘z hayotini saqlab qolibdi, hunar o‘rganib, murodu maqsadiga yetibdi.

Bilamizki, ertaklar o‘z tabiatiga ko‘ra tarbiyalovchidir. Ular orqali biz yaxshi va yomon fazilatlarni o‘rganamiz, o‘z tabiatimizdagi nuqsonlarni to‘g‘rilashga harakat qilamiz.

Ertaklarda nasihatlar, o‘gitlarning keltirilishi ertakning syujetini, badiiyatini boyitish bilan birga, kattalarning gapiga quloq solish, ularga amal qilish yaxshi natijalar berishini, hayot ko‘chalarida to‘g‘ri yo‘lni topib yurishni o‘rgatadi. Ertak qahramonlari nasihat va o‘gitlarga amal qilgan holda qiyinchiliklarni yengadilar, o‘zi va boshqalarninghayotini saqlab qoladilar. Ertak qahramonlarining bu xususiyatlarini misol keltirish orqali bollarga kattalarning gaplariga amal qilish, so‘zlariga beetibor qaramaslik kerakligini o‘rgatamiz.

Kundalik hayotimizda ham ota-onasi, qarindoshlari, ustozlari so‘zlariga quloq solmay turli oqimlarga, yomon ko‘chalarga kirib ketayotgan farzandlarni ko‘rishimiz mumkin. Ular yoshliklari, tajrbasizliklari tufayli shunday ahvolga tushadilar. Kunlar o‘tib, o‘zlari ham tanlagan yo‘llari noto‘g‘ri ekanligia ishonadilar , lekin umrining eng yaxshi davrlari o‘tib bo‘lgan, obro‘sini, sog‘ligini yo‘qotgan bo‘ladilar.

Kelajagimiz hozirgi kunda maktab sinfxonalarida o‘tirgan bolalar qo‘lida ekan, biz ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashimiz kerak. Buning

uchun ajdodlarimiz merosidan, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizdan foydalanishimiz kerak, shu jumladan, ertaklardan ham.

Ertaklarda maqollar ham ko‘plab uchrab turadi. Maqollar bir ertakning mazmuniga teng kelishlari, ertak uning mohiyatini ochib berishi ham mumkin. Ba’zi ko‘rinishlarda maqol ertakning negizi, voqealar rivojining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi xazinasida shunday ertaklar borki, ularning nomlari maqol yoki hikmatli so‘z bilan ifodalangan. Maslan, “Yaxshi niyat – yarim davlat”, “Haq so‘zga zavol yo‘q”, “Siringni sirtinga chiqarma”, “Ota ulug‘, otadan mehmon ulug‘”, “Har kimning bolasi o‘ziga shirin”, “Nima eksang, shuni olasan”, “Qo‘shni keldi – ko‘mak keldi”, “Otangga qilsang, bolangdan qaytadi”, “Tan sihatlik – tumaan boylikk”, “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”, “Do‘stlik sinovda chiniqar”, “Sabr tagi – sariq oltin”, “Har kim qilsa, o‘ziga”, “Yoqma – pisharsan, qazma - tusharsan”, “Ko‘kka tupursa, betga tushadi”, “Erni er qiladigan xotin”, “Hunarliga o‘lim yo‘q”, “Qari bilganni pari bilmas” ertaklar mavjud. Bu ertaklarni mazmuni, asosiy g‘oyasi ertak nomidan ham bilinib turibdi. Ma’lum bir ma’noda ertak maqolning izohi sifatida yaratilgan bo‘lishi ham mumkin.

Masalan, “Hunarliga o‘lim yo‘q”, “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertaklarida podsho go‘zal, ammo kambag‘al bo‘lgan qizni yaxshi ko‘rib qoladi va unga uylanmoqchi bo‘ladi. Qiz go‘zal bo‘lish bilan birga aqlli va mehnatkash ekan. U podshoga hunar o‘rganib kelishni shart qilib qo‘yadi. Podshoshartni bajaradi va ular turmush quradilar. Bir kuni tunda podsho o‘z odatiga ko‘ra oddiy odam kiyimida shahar aylangani chiqadi va kabbobpaz (ba’zi variantida- qaroqchilar) qo‘liga tushib qoladi. Ularga chiroyli gilam yoki ko‘za to‘qib yoki yasab berib, bu buyumni faqat podsho sotib olishimumkinligin aytib, ularni saroyga jo‘natadi. Farosatli malika bu podshoning yasagan narsasi ekanligini bilib, olib kelgan odamlar orqasidan soqchilarni yuborib, podshoni ozod qiladi. Podsho o‘z hunari orqali hayotini saqlab qoladi.

Yana bir “Yoqma -pisharsan, qazma – tusharsan” nomli ertakni ko‘rib chiqsak. Bir zamonda bir sahovatli odam yashagan ekan. U odam hamisha elga

non-osh tarqatib, xizmatini qilar ekan. Dala-dashtga borsa, qo‘y boqishga yordam bera, daryoga borsa, baliqlarga non-go‘sht tashlab o‘tar ekan.

Uning bir o‘g‘li bor ekan. Otasi vafot etgach, yigit onasi bilan yolg‘iz qolibdi. Bir savdogar uni ishga yollabdi. Olti oy yaxshi boqib, ro‘zg‘origa ham qarabdi. Olti oydan so‘ng bir kunlik xizmaat qilib berishini aytibdi. Ular qirq tuya, qirq eshakni olib, qirq to‘rva va xurjunni yuklab, tuni bilan yo‘l yurishib bir quduq oldiga yetib boribdilar. Bola quduqqa tushib to‘rva va xurjunlarga qo‘liga ilingan narsani solibdi. Bir qarasa, na to‘rva bor, na xurjun, na tepadan arqon tushibdi. Boy oltin va kumushlarni olib, bolani quduqda qoldirib ketib qolibdi. Bola qarasa, hammayoqda odamlarning suyaklari yotgan emish. Endi xafa bo‘lib o‘tirgan ekan, yonida bir yigit paydo bo‘libdi. U bolaga yurtiga qaytib ketishga yordam beribdi.

Bir muncha vaqt o‘tgach o‘sha savdogar yana ishchi izlab kelibdi. Bola, men qutulib keldim, boshqa birov borsa, o‘lib ketmasin, deb yana ishga yollanibdi. Olti oydan so‘ng yana o‘sha quduq oldiga boribdilar. Bola quduqqa tushishni bilmasligini aytib, boydan ko‘rsatib berishni so‘rabdi. Boy arqonga osilib quduqqa tusha boshlaganida, bola arqonni kesib yuboribdi, Tuyalarni ham haydab yuborib, qutulganiga shukur qilib, yurtiga qaytib, yaxshi hayot kechiribdi.

Ertakda tasvirlangan voqealar uning sarlavhasidagi maqol mazmunini izohlab kelayotganini ko‘rinib turibdi. Savdogar ochko‘zligi, xazinani boshqalar bilib qolmasin deb yordam bergan ishchisini quduqqa tashlab ketar ekan. Yigit buni bilganidan so‘ng savdogarni jazolashni diliga tuyib, ikkinchi marotaba unga ishga yollanibdi va o‘zni quduqda qoldirib ketibdi. Boshqalarni o‘limga yuborish bilan boylik orttirayotgan savdogar o‘zi tayyorlagan tuzoqqa tushib halok bo‘libdi. Bolaning otasi esa sahovatli odam bo‘lganligi tufayli uning o‘g‘li quduqdan sog‘-salomat qutulib chiqibdi.

Bu ertak nafaqat bolalarga , balki biz kattalarga ham namuna bo‘la oladi. Ertak bizni mehnatsevarlikka, insonparvarlikka , sahovatli bo‘lishga o‘rgatadi. Boshqalardan yordamimizni ayamaslik, kuchimiz va davlatimiz odamlaru hayvonlarga yordam berish kerakligini o‘rgatadi. Hayr-ehsonli bo‘lish, sahiy bo‘lish o‘zimiz va farzandalrimizga ham foyda keltirishini unutmasligimiz kerak.

Xulosa

Yoshlarimizning har tomonlama yetuk, yaxshi xulqli, vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, ilmli qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb mavzusidir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach hayotimizda juda ko‘p o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqdo. Muhtaram Prezidentimiz har bir sohaga alohida e’tibor berganlaridek, ta’lim –tarbiya sohasiga ham katta e’tibor qaratmoqda. Biz buni bugungi kunda yangi kollej, litseylarning qurilishi, maktab biolarining ta’mirlanishi, zamonaviy o‘quv qurollari, texnika va texnologiyalarning ta’limm jarayoniga kirib kelishida ko‘rishimiz mummkin. Albatta, bunga javoban farzandlarimiz ham yurtimizning obro‘-e’tiborini yuksaklarga ko‘tarish uchun harakat qilmoqliklari kerak. Buning uchun ular o‘zlarini ayamay ilm olishlari va axloq-odob qoidalarini o‘rganmog‘i kerak.

Bolaga ta’lim va tarbiya berishni eng kichik yoshidanoq boshlash kerak. Bolaning boshlang‘ich tarbiyasi oilada boshlanadi. “Qush uyasida kshrganin qilar” degan maaqol bejiz aytilmagan. Agar oila muhiti sog‘lom bo‘lsa, g‘amma bir-biriga hurmat va etibor bilan qarasa, bol ham atrofidagilarga yaxshi munosabatta bo‘lishga o‘rganadi. Demak biz avvalambor oilalarim izning go‘zal bo‘lishiga erishishimiz kerak.

Bola tarbiyasida maktab ham katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlar umir davomida saqlanib qoladi. Zero xalqimiz orasida “Yoshlikda olingan bilim toshga yozilgan bitikday. ” degan hikmatli so‘z yashaydi.

Komil inson tarbiyasi mas’uliyatli va murakkab jarayondir. Bunda biz muqaddas kitoblarimiz va komil insonlik darajasiga erishgan buyuk mutafakkirlarimiz asarlariga tayanib ish ko‘rsak yaxshi natijalarga erishamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga axloq-odob o‘rgatishda, ularni go‘zal xulqli qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli beqiyosdir. Bolalar asar qahramoni bilan birga ulg‘ayadalira , undan g‘rganadilar, taqlid qiladilar. Kichik maktab yoshtdagi o‘quvchilar ertak o‘qishni yaxshi ko‘radilar. Qiziqarli

sarguzashtlarga, g‘ayritabiiy voqea-hodisalarga boy ertaklar ularni mahliyo qiladi. Shunday ekan o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarga ko‘proq ertak aytib berishlari kerak.

Ertaklarni shunchaki aytib yoki o‘qib berish emas, uning g‘oyasini bola ongiga singdirish, hayotiy voqea-hdisalar bilan bog‘lash orqali bolalarni yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalash mumkinligi shubhasizdir. Chunki ko‘p ertak o‘qigan boladan yomonlik chiqmaydi.

Ertaklarni ustida ishlashda ulardagi har bir tarbiyaviy jihatga alohida e’tibor qaratish kerak. Ayniqsa ertaklarda keltirilgan maqollar, hikmatli so‘zlar, o‘gitlarning mazmunini izohlash, ularga amal qilish natijasida qahramonlar nimaga erishganliklarini ta’kidalsh orqali biz bolalarni go‘zal xulq sohibi, mard, jasur, bilimli, vatan ravnaqi uchun, xalqining osoyishaligi uchun hech narsani ayamaydigan qilib tarbiyalashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch .Toshkent, “Ma’naviyat”-2008.
2. Barkamol avlod orzusi. O’zbekiston Davlat milliy ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti, –Toshkent, 2000 yil.

x x x

3. Abu Homid G‘azzoliy. Riyozatun-nafs. (Nafs tarbiyasi) Toshkent, – Movarounnahr, 2006.
4. Afzalov M.I. O’zbek xalq ertaklari haqida. «FAN» nashriyoti, Toshkent,-1964.
5. Afzalov M., Rasulov X.,Husanov Z. O’zbek xalq ertaklari. Toshkent- 1963.
6. Aql bidan davlat. Ertaklar to’plami. Toshkent-«O’qituvchi» nashriyoti- 1995.
7. Gulpari. Namangan ertaklari, Toshkent - 1967 .
8. Jahongirov G’. O’zbek bolalar folklori. Toshkent- «O’qituvchi», 1975.
9. Kenja botir. Ertaklar to‘plami. –Sharq, 2001.
10. Yonar daryo. O’zbek xalq ertaklari. Toshkent- 1986.
11. Ikki oy, ikki yulduz. O’zbek xalq ertaklari to’plami. Toshkent -«Meros» nashriyoti-1992 .
12. Ilon pari. Ertaklar to’plami, Toshkent- 1985.
13. Ma’naviy kamolot omillari. Akademik E. Yu. Yusupov tahriri ostida. Toshkent- «Universitet», 1995.
14. Mahmudov Tilab. Mustaqillik va ma’naviyat. «Sharq» nashriyot-matabba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent- 2001..
15. Ma’naviy kamolot omillari. Toshkent, «Universitet»- 1995.
16. Murodov M., Shayxov H. Hayotbaxsh xayollar.-T.: «Yosh gvardiya», 1985.
17. Mo’minov O. Xalq og’zaki ijodi va axloqiy tarbiya. Toshkent- «O’qituvchi» nashriyoti, 1983.
18. Oyjamol. Ertaklar to’plami, Toshkent- 1969..
19. Oltin olma. Ertaklar to’plami. Toshkent- 1966.
20. Oltin beshik. O’zbek xalq ertaklari. Toshkent- 2004.
21 Rabg’uziy. Qisasi Rabg’uziy. Toshkent, «Yozuvchi» nashriyoti-1990.

22 Samo tulpori. Ertaklar to’plami, Toshkent- 1987.

23 Suv qizi. O’zbek xalq ertaklari, Toshkent-1966.

24 Cho’loq bo’ri. Ertaklar to’plami, Toshkent-«Yulduzcha» nashriyoti, 1988.

25 Yusuf Tovasliy. Hikmatlar xazinasi, Toshkent, «Navro’z» nashriyoti-1994.

26. O’zbek xalq maqollari. Toshkent- 2005.

27. Qora dev. Ertaklar to’plami, Toshkent- 1984.

28. www.ziyonet.uz

29. www.edu.uz

30. www.kitobxon.uz